RAHMATJON TURSUNOV, SULTONALI MANNOPOV

# AN'ANAVIY QO'SHIQ IJROCHILIGI USLUBIYATI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR
TA'LIMI MARKAZI

RAHMATJON TURSUNOV
SULTONALI MANNOPOV

# AN'ANAVIY QO'SHIQ IJROCHILIGI USLUBIYATI

*AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI UCHUN O'QUV QO'LLANMA*

AXBOROT-RESURS MARKAZI
Inv. № 1595

TOSHKENT – 2003
«IJOD DUNYOSI» NASHRIYOT UYI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT ISHLARI VAZIRLIGI
ISTIQBOLNI BELGILASH, USLUBIYAT VA AXBOROT
RESPUBLIKA MARKAZI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
MADANIYAT INSTITUTI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY-USLUBIY KENGASHLARI NASHRGA TAVSIYA ETGAN

**Taqrizchilar: M.Tojiboyev,**
O'zbekiston davlat konservatoriyasining
«An'anaviy ijrochilik kafedrasi» dotsenti.
**I. Qirg'izov,**
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida shakllangan istiqlol mafkurasini yoshlar, ayniqsa, bo'lg'usi mutaxassislar qalbi va ongiga singdirish ta'lim jarayonida amalga oshiriladi.

Ushbu o'quv qo'llanma mualliflari o'zbek xonandachilik san'ati tarixiga mahalliy qo'shiqchilik uslubiga to'xtalib, uning zamirida an'ananaviy qo'shiq ijrochiligi bezaklarini nota yozuvida ifodalash va o'zlashtirish masalasiga e'tibor qaratadilar.

Qo'llanmadan talabalar va barcha musiqa ixlosmandlari foydalanishlari mumkin.

M 4306020400-21 / 2003

ISBN 5-8244-2036-X

© «Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2003.

# KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, hamma sohalarda rivojlanish sari yangi-yangi va salmoqli ishlar qilina boshlandi. Musiqiy merosimizning uzoq o'tmishini yanada chuqurroq o'rganish sohasida ham unumli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, musiqiy san'atimiz tarixini, uning buyuk namoyandalari tarixini har tomonlama o'rganish va xalqimizga yetkazishga keng imkoniyatlar ochildi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Qullik va mute'lik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lishdan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda», degan so'zlariga asoslanib musiqiy tariximiz, uning ustazoda ijrochi hofizlari va ular qoldirib ketgan o'lmas merosini tiklab, uni rivojlantirib, davom ettirish vaqti keldi.

O'quv qo'llanmani e'lon qilishdan maqsad, necha asrlar osha yashab kelayotgan an'anaviy qo'shiq ijrochiligining zer-zabarlari haqida xalqimizga qisqacha bo'lsa-da, ma'lumot berishdir. Chunki, muayyan sabablarga ko'ra shu vaqtgacha, bu haqda jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Musiqiy merosimizni notaga yozib olish muhim bo'lgani kabi, uning serjilo jonli ijrosini magnit tasmalariga yozib olish va kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylab saqlash biz uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston radiosi fonotekasining oltin fondidan mustahkam o'rin olgan o'zbek mumtoz ashulalari, bastakorlar ijrosidagi ashulalar magnit tasmasiga abadiy muhrlangan. Ularni ijro etgan turli avlodga mansub hofizlarning nomlarini aytib o'tishni joiz topdik: Ota Jalol, Ota G'iyos, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Domla Halim Ibodov, Mamadbobo Sattorov, Berkinboy Fayziyev, Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov, Akbar Haydarov, Ma'murjon Uzoqov, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Orifxon Xotamov, Tavakkal Qodirov, Fattohxon Mamadaliyev, Rasulqori Mamadaliyev, Ro'zmat Jumaniyozov, Otajon Xudoyshukurov va boshqalar. Ana shu ustoz hofizlar ijro etgan musiqiy yozuvlardan yosh ashulachi-talabalar o'quv jarayonida unumli foydalanmoqdalar.

Akademik Yunus Rajabiyning 5 jildli «O‘zbek xalq musiqasi» (T., 1955-1960), 6 jildli «Shashmaqom» (T., 1966-1975), «Musiqa merosimizga bir nazar» (T., 1978), «Xorazm maqomlari» birinchi va ikkinchi to‘ldirilgan nashrlari (to‘plovchi va notaga oluvchi Matniyoz Yusupov («O‘zdavnashr», T., 1960-1986) an’anaviy ijrochilikka bag‘ishlangandir.

O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining xalq cholg‘ulari ijrochiligi kafedrasining professor o‘qituvchilari ilmiy izlanishlar olib borib, bu borada ijobiy natijalarga erishdilar. Professor Ahmad Odilov juda ko‘p o‘zbek xalq kuylarini chang soziga moslashtirib notaga tushirdi. Ular ijrochilik amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Mashhur changchi Fozil Xarratov ham bu sohada katta meros qoldirgan. Professor Murod Toshmuhamedovning an’anaviy ijroni to‘laqonli aks ettiruvchi «G‘ijjak taronalari» (G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T., 1983), «G‘ijjakda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish» («Giprolesproyekt» 1999) o‘quv qo‘llanmalari, Mirzo Toirovning nay ijrosiga moslashtirgan xalq kuylari, Fattohxon Mamadaliyevning «Milliy musiqa ijrochiligi masalalari», professor Rahmatjon Tursunovning «Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti» (G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T., 2002), professor Sultonali Mannopovning «Qo‘shiq olami yulduzlari» («Farg‘ona, 1996) o‘quv qo‘llanmalari amaliyotda muvaffaqiyat bilan foydalanilmoqda. Shuningdek, konservatoriyaning an’anaviy ijrochilik kafedrasi mudiri professor Rifatilla Qosimov an’anaviy ijrochilikka bag‘ishlangan bir necha o‘quv qo‘llanmalar yaratdi. Shulardan «Rubob navolari» («O‘qituvchi», 1993), «An’anaviy rubob ijrochiligi» («O‘zbekiston», 1999), «Ud ijrochiligi» (G‘.G‘ulom nomli Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002), «Tanbur ijrochiligi» («Cho‘lpon», 2002) qo‘llanma va darsliklarida shashmaqomning mushkulot bo‘limiga mansub Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarida ijro etiladigan kuylar, shuningdek, bastakorlar ijodidan namunalar kiritilgan. Bu o‘rinda professor Sulaymon Taxalovning «Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari» (Toshkent, 1983) o‘quv qo‘llanmasini alohida ko‘rsatib o‘tish joizdir.

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti dotsentlari O‘rozali Toshmatovning «Navro‘z tongi», Tohir Yo‘ldoshevning «Kurd» afg‘on rubobi ijrochiligi bo‘yicha va A.Hamidovning «O‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligi xrestomatiyasi» o‘quv qo‘llanmalari an’anaviy ijroga moslashtirilib, ta’lim olayotgan talabalarning repertuarini boyitishga mo‘ljallangan.



An’anaviy qo‘shiq ijrosiga ixtisoslashgan tovushlarning sadolanish xususiyatlari hamda ularni nota yozuvida aks ettirish bezaklarini ishlab chiqish va takomillashtirish vazifasi oldimizda ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Darhaqiqat, nota yozuvi asoslarini inson ovoziga yordam tariqasida an’anaviy qo‘shiq ijrochiligi uchun ilmiy asoslab, amaliy ijro etishda xalq musiqasidagi xilma-xil uslub, to‘lqinlantirish, o‘rama, zangula, qochirim, nola va shu kabi bezaklar bilan ijro qilinadigan o‘ziga xos zeru zabarlarni imkon boricha to‘laroq aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy qo‘shiq ijrosida qo‘llaniladigan bezaklar o‘zining nafisligi va murakkabligi bilan alohida ajralib turadi.

Ushbu qo‘llanma mutaxassis ijrochilar va yosh xonandalarga mo‘ljallangan bo‘lib, nota yozuvi asoslari ko‘magida an’anaviy qo‘shiq ijrochiligi bezaklarini o‘rganish ishida yaqindan yordam beradi.

Shuningdek, an’anaviy qo‘shiq ijrochiligidagi texnik omillar va an’anaviy qo‘shiq ijrochiligiga mansub bo‘lgan ijro qilish uslublari hisobga olinadi. Ushbu qo‘llanmani yozishda mualliflar ko‘p yillik ish tajribalariga suyanganlar. O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Farg‘ona Davlat universiteti, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti, akadem litsey va kollejlar talabalari bilan bo‘lgan mashg‘ulotlar tajribasida sinalgan.

Mazkur qo‘llanmani nashrga tayyorlashda foydali maslahatlar bilan yordam bergan hamkasblar O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi professorlari To‘xtasin G‘ofurbekov, Rifatilla Qosimov, O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev, O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti dotsenti Tohir Yo‘ldoshev, Toshkent madaniyat kolleji o‘qituvchisi G‘anijon Vahobov va boshqalarga mualliflar o‘z minnatdorchiliklarini izhor etadilar.

## O‘ZBEK XONANDALIK SAN’ATI

O‘zbek xalq musiqasining she’riga asoslanib yaratilgan asarlarni ijro etuvchilar qadimda turlicha nomlangan: xonanda, hofiz, ashulachi, qo‘shiqchi, yallachi, katta ashulachi, laparchi, talqinchi, maqomxon, savtxon, baxshi, shoir, zokir, mug‘anniy, mutrib, yirovchi, go‘yanda singari. Bu ijrochilar bir necha guruhga bo‘linadilar. Chunonchi, maqom ijrochilariga maqomxon, hofiz, xonanda, savtxon deyil-

sa, doston musiqa ijrochilariga baxshi, shoir, dostonchi, yirovchi deyilgan, xalq orasida keng tarqalgan janr ijrochilari yallachi, laparchi, ashulachi, qo'shiqchi singari nomlar bilan atalgan.

Xonandalarning bu xilda nomlanishi ko'p jihatdan o'zbek milliy musiqa san'atining janrlari va shakllari xilma-xilligi bilan bog'liq bo'lgan. Bu har bir ijrochining o'zi tanlagan shu sohada mukammal tajriba va yuksak saviyaga erishganligidan dalolat beradi. Xalq orasida ular to'g'ridan-to'g'ri «Savtxon», «Yallachi», «Katta ashulachi», «Talqinchi», «Shoir», «Baxshi» kabi nomlar bilan aytilgan. Bu nomlar orqali ijrochining qaysi vohada ko'rsatgan faoliyati va (kasbiy) darajasi ko'rsatiladi. Masalan, baxshining hech qachon maqom aytmasligi yoki katta ashulachining lapar aytmasligi ma'lum.

Shoirlar ko'p asrlar davomida musiqa san'ati, uning ijrochilari – xonanda, sozanda, cholg'u asboblari, maqomlarning inson ruhiga ko'rsatadigan ta'siri, kuchi, musiqa bilan ijro etiladigan raqs san'ati, musiqaning janglarda, shoh saroylarida, xilma-xil bazm va tomoshalarda tutgan o'rnini o'z ijodlarida ifodalab kelganlar. Xonanda shoir she'ridan ta'sirlanib ijod qilgani singari, shoir ham xonanda va sozandalar ijrosida ilhomlanib she'rlar yaratgan.

Qadimdan mashhur bo'lib kelgan xonanda va sozandalar tarixiy manbalarda saqlanib qolgan.

Hofiz va bastakor Mahmud Nasafiy (XV asr oxiri, XVI asr boshlari) Nasafda tug'ilgan. U Samarqand, Buxoro va Hirotda yashab o'tgan. Uning hofizlik va bastakorlik faoliyati Samarqandda boshlangan edi. Bu davrda u Temuriylar saroyida xizmat qiladi. Saroy amaldorlari bilan munosabati buzilgandan keyin Hirotga ketadi. Nasafiy g'oyat baland va shirali ovozga ega bo'lib, xonandalikda shuhrat qozongan. Hirotdagi bastakorlar unga tez-tez murojaat qilib, maslahatlarini olib turardilar. Keyinchalik u Hirotdagi Shohruh saroyida xizmat qiladi. So'ngra Buxoroga keladi va u yerda hayotining oxirigacha yashaydi. Buxoroda Mahsud Kavkabiy bilan do'stlashadi, undan musiqa nazariyasi asoslarini o'rganadi. Zamondoshlari uni «Qo'li gul» (xazordaston) deyishgan. Nasafiy «Iroq», «Isfag'on», «Husayniy» maqomlari usulida bir necha «Savt», «Amal» va «Naqsh»larni yaratgan edi. Shulardan biri «Naqshi Mahmudi» deb nomlangan.

Samarqandda yashab, ijod qilgan san'atkorlardan biri Kulol Pirmuhammad Samarqandiydir. U kulolchilik bilan mashg'ul edi. Lekin Amir Aliakbar Samarqandiyga shogird tushib, musiqa ta'limini ham



egallaydi. Keyinchalik bir qator «Amal», «Naqsh», «Kulliyot», «Peshrov»larni yaratadi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, u «Kuloliy Kulliyoti» asarida Samarqand musiqa tarixini yozgan. Bundan tashqari u «Kuloliy» taxallusi bilan g'azal va ruboiylar ham bitgan.

Muhammad Kavkabiy (XVI asr oxiri, XVII asr boshlari) ham Samarqandda tug'ilgan bo'lib, shu yerda musiqa ta'limini Hoja Ja'firin Qonuniy Samarqandiydan o'rganadi. So'ngra musiqa ilmini puxtalash maqsadida Buxoroga boradi va Najmiddin Kavkabiy Buxoriydan ta'lim olishni davom ettiradi. Kavkabiy aslida falsafa, riyozat va boshqa fanlarni juda yoshligidanoq mutolaa qilgandi. Bu fanlarning musiqa san'ati bilan aloqadorlik masalalari ustida ham ishlaydi. Shu bilan bir qatorda ud, qonun, barbat asboblarida chalishda ham shuhrat qozonadi. M.Kavkabiy «Hoja Muhammad uslubiga taqlidchi» sifatida ham keng tanilgan. Ustozidan Najmiddin Kavkabiy «Kavkabiy» taxallusini oladi. M.Kavkabiy o'zi yaratgan bir qator «Savt», «Amal», «Kulliyotlar»ni ustoziga bag'ishlaydi.

Shoir Yusuf Amiriyning (XV asr) «Daxnoma» deb atalgan she'riy asari Mirzo Ulug'bekning akasi Boysung'ur Mirzo homiyligida bo'lgan, unga bag'ishlangan «Dahnoma»ning «Dar sababi nazmi kitob» nomi bilan yozilgan ikkinchi qismida yozadi:

*Qobuzchi zavq baxshu nag'ma pardoz,*
*Qilib narron eli bulbuldek ovoz,*
*Tobukda ne kamar oshmay belidan,*
*Yukunib chang changchilar elidin.*
*Ne uchun uchurib unlar sadosi,*
*Jahonni ko'churib barbat navosi.*

Shoir bazm o'tirishlari ifodalangan she'rini davom ettirib yozadi:

*Hikoyatlar uloshib bir-biriga,*
*Quloq solmay yirovchilar yiriga.*
*Muqanniylar cholib majlisda xushlar,*
*Yurub sokiy tutub sar ko'cha qushlar.*

Bu she'rda xonandalar «Yirovchi», sozandalar esa «Mug'anniylar» deyilgan. O'sha davr qo'shiq yoki ashula «Yir» deb yuritilgan.

XV asrda Hirotda tug'ilgan va hayotining oxirigacha Buxoroda yashagan Amirmastiy Hirotda bo'lgan davrida musiqa ta'limini Abdurahmon Jomiydan oladi. Bu san'atkor g'oyat baland va yoqimli

ovozi bilan shuhrat qozongan edi. Hofizlikdan tashqari u milliy asboblar: tanbur, ud, rubob va, ayniqsa, qobuzda mahorat bilan chalardi. Bu sozanda Buxoroning yuksak musiqa san'atini o'zlashtirish maqsadida Buxoroga keladi. U Buxoroda mashhur qobuzchi, ya'ni Amirmastiy Qobuziy nomi bilan shuhrat qozongan edi.

Buxoroda Xisraviy ustozlardan soz chalish san'atini o'rganibgina qolmasdan, balki Buxoro sozandalariga Hirot cholg'u yo'llarini o'rgatadi. Zamondoshlari – Mahmud Nasafiy, Hofizi Turdi, Qosimi Bozoz va boshqalar uning shogirdlari bo'lishgan.

Yuqorida shoir Amiriyning qobuzchiga atab yozilgan she'rida ana shu ustoz qobuzchilar nazarda tutilgan edi, albatta.

XV asrning ikkinchi yarmida yashagan shoir Sayyid Ahmadning «Taashshuknoma» asari yaratiladi. U Temurning o'g'illaridan Mironshohning farzandi edi. O'zbek va fors tillarida yaratgan asarlarini Alisher Navoiy ham alohida ta'kidlab o'tgan.

Mazkur «Taashshuknoma» asarida bayon qilingan musiqa asarlarining nomlari shoirning saroy musiqa donishmandlari, ayniqsa, maqom va makon ijrochilari bilan yaqin aloqada bo'lganligidan dalolat beradi.

«Taashshuknoma» asari kitob sababi nomi bilan boshlanadi, bu o'ziga xos daromad vazifasini o'taydi. So'ngra «Avvalgi nomasun aytur» qismining oxirida shoir u yoki bu maqom nomini ko'rsatib o'tadi. Navbatdagi qism – «G'azal». Uni tavsiya qilingan kuyga solib aytishni ko'rsatib beradi. Masalan, birinchi «G'azal»ning kuyi quyidagi satrlarda bayon etilgan:

*Sening birla mening ahdim hamondur,*
*Nechakim jonima javrung yamondur.*
*Falak tugurddi chin fasli hamalni,*
*Iroqvor aytay bu g'azalni.*

Shoir bu satrlarida «G'azal» qismini aynan «Iroq» maqomi yo'llariga solib aytishni ko'rsatib o'tadi.

«Ikkinchi nomasun aytur» qismining oxirida shunday deb yozadi:

*Ulodur Sayyidi Ahmad kim yarogun,*
*Inak bori bir ishiga yarogun.*
*Eshitgil bu g'azalni chin Iroq,*
*Ajam sozin tuzib aytay Iroqi.*



Shoir asardagi ikkinchi qismning g'azalini ham Iroq yo'liga solib aytsa-da, jo'r bo'luvchi cholg'u asboblarini Ajam soziga moslab sozlashni tavsiya qiladi.

«Uchinchi nomasi aytur» qismidagi so'nggi satrlarda shunday deydi:

*Tilayman tunu-kun subhi visoling,*
*Bihamdullohki ko'zdadur xayoling.*
*Xayoling birla aytay bu g'azalni,*
*Navo sozin tuzub kuyduk jadalni.*

Maqomlar orasida eng ixcham, kuyi yorqin, orombaxsh, xonandalarning sevib aytadigan maqom yo'llaridan biri Navo maqomidir. Bu maqom cholg'uchilari, ayniqsa, surnaychilar dasturidan o'rin olgan, torlarning bir qator simfonik, vokal-simfonik asarlari uchun ham manba rolini o'ynamoqda. Bu maqom yo'li ehtimol, Sayyid Ahmad davrida ham mana shu ilhombaxsh xususiyatlariga ega bo'lgandirki, shoir «G'azal»ni shu kuyga solib aytilishini ma'qul topgan.

Shoir to'rtinchi «G'azal»ni «Husayniy» maqomi asosida kuylanishini aytib shunday yozadi:

*Qilur bo'lsang mazorimga nigohe,*
*Chiqargaymen lahatdin garm ohe.*
*Eshitgil topdim emdi chun mahalni,*
*Husayniy pardasida bu g'azalni.*

Xuddi Navo maqomi singari Husayniy ham hozirda keng tarqalgan. Bu maqom kuyi ham cholg'u kuyi sifatida ijro etilib kelmoqda.

Sayyid Ahmadning oltinchi «G'azal»i boshlanishidan oldin quyidagilarni o'qiymiz:

*Firoqing zulmidin dod istaram dod,*
*Raqibing dastidan faryod-faryod.*
*Eshitgil aytoyin ko'nglum niyozin,*
*Qobuz qubsab tuzib ushshoq sozini.*

Asarda nomi ko'rsatib o'tilgan «Ushshoq» xonandalar orasida «Samarqand Ushshog'i», «Sodirxon Ushshog'i», «To'ychi Ushshog'i», «Qo'qon Ushshog'i», «Hoji Abdulaziz Ushshog'i», «Daromad Ushshoq», «Qashqarchai Ushshoq» singari nomlar bilan tarqalgan. Sayyid Ahmad bu jozibador sevgi ashulasining o'z davrida ma'lum va mash-

hurligini hamda shinavandalar e'tiborida bo'lganligini hisobga olgan holda tavsiya etgan bo'lishi ehtimol.

Shoir «Taashshuknoma» asarining so'nggi – uchinchi «G'azal»ining o'zbek va tojik tillarida tuzilgan satrlarida shunday deydi:

*Suxan kutox kunam kon ta'bi nozik,*
*Nadorattoqati chandongaroni.*
*Va lekin bu g'azaldur xatmi daftar,*
*Tuzub Panjgoh sozin aytay azbar.*

Xonandalar o'zlaridagi g'ayritabiiy mahoratlarini faqatgina ashulaxonlik yoki sozandalik bilan chegaralab qo'ymaganlar. Ularning ayrimlari musiqa ilmidan tashqari yana boshqa ilmlarni ham o'zlashtirishga qiziqadilar. Jumladan, Muhammadi Mu'in (XV-XVI asrlar) Buxoroda tug'ilgan bo'lib, musiqa ilmini otasidan o'rganadi. So'ngra u ilmini yanada puxtalash maqsadida Hirotga boradi. Hirot madrasasida ahloq, qofiya, aruz va boshqa ilmlarni o'rganadi. Ammo Shayboniyxon Hirotni zabt etgandan keyin Mu'in yana Buxoroga qaytib keladi. Buxoroda maqom ijrochiligini yanada chuqurlashtiradi va buning natijasida «Savti Mu'ini», «Savti Shohi», «Amali Mu'in» asarlarini yaratadi.

Buxoroda tug'ilib o'sgan va ijod qilgan san'atkorlardan yana biri Muhammadhusayndir (Mavlono Miri Tabib XVI asr).

Muhammadhusayn musiqa va tabiblik hunarini otasidan o'rgangan. U ham boshqa zamondosh buxorolik san'atkorlar singari ijod bilan shug'ullanadi. «Kulliyot», «Amal», «Peshrav», «Raxta», «Qavl» singari «Bo'lsalik», «Navo», «Kuchak», «Rost» maqomlariga asoslangan holda yaratadi. Shu bilan bir qatorda u «Tasnifi Miri», «Amali chashmi ohu», Gardun usulida «Peshravi Navo»larni ijod qilgan, g'azal va ruboiylar ham yozgan.

XV asrda yashagan shoirlardan biri Sayyid Qosimiyning «Haqiqatnoma» asarida xonandalarga qarata aytgan oqilona so'zlari hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Jumladan, shoir shunday deydi:

Bobi xashtum
*Zamona birla mutrib, soz qilgil,*
*Mahal birla g'azal oz qilgil.*
*Qilib sen nag'mai chun bulbuli mast,*
*Baland kultar, o'zingni qilgin past.*

*Kelturgil bizga obi zindagoniy,*
*Pir ulduk, kechdi ayomi javoni.*



*Zamona chagididin topar majol,*
*Berur chun ud bizga gushmole.*

Shoir Sayyid Ahmad Qosimiy musiqa san'ati ahlini xoh u xonanda, xoh u sozanda bo'lishidan qat'iy nazar, yashayotgan zamoniga, davridagi shinavandalar didiga mos keladigan oqilona g'azallar kuylashga chaqiradi. Shu bilan bir vaqtda u o'zini takabbur tutadigan hofizlarga nasihat qiladi va ularning aytgan qo'shiqlari bulbul xonishidan ham ziyod bo'lsa-da, lekin kamtar bo'lishga chaqiradi.

Buxoro viloyatiga qarashli Qorako'lda yashagan Devonai Hisobiy XV asrda Xivada tug'iladi. U tezda musiqashunos, hofiz va shoir sifatida taniladi. Devonai Hisobiyning musulmon diniy marosimlari bilan bog'liq bo'lgan zikr yo'llarini aytishi haqidagi ovozasi boshqa o'lkalarga ham tarqaladi. Uning dovrug'i Samarqanddagi Hoja Ahrorgacha borib yetadi. Hoja Ahror hofizni Samarqandga taklif qiladi. Devonai Hisobiy Hoja Ahrorning xonaqosida zikrxonlik qiladi. Bu xonaqoda u Jaloliddin Rumiy, Qosimiy Anvorning naxdlariga kuylar bastalaydi. Hayotining oxirida yana qaytib Qorako'lga keladi va shu yerda u «Naqsh», «Peshrav» singari musiqa asarlari bilan bir qatorda musiqa ilmi to'g'risida risola ham yozadi.

XV asrda Hirotda yashagan boshqa bir musiqashunos olim Zaynulobiddin Rumiydir. U Hirotda tug'ilgan. Rumiy musiqashunos va shoir bo'lishi bilan bir qatorda, musiqiy asarlar ham ijod qiladi. Jumladan, uchta «Peshrav» bastalaydi. U «Husayniy» maqomi asosida «Afshon» peshravini, «Iroq» maqomi asosida «Saql» peshravini va «Husayniy» maqomi asosida «Peshravi fors»ni yaratadi. Rumiy bir necha g'azal, qasida va ruboiylar ham yozgan.

XV asrda yashagan Darvesh Maqsudi Andijoniyning nomi ham shuhrat qozonadi. U Andijonda tug'ilgan. Bastakor va hofiz sifatida Hirotga borganidan keyin kamolga yetadi. Hirotda u hofizlik va bastakorlik san'atini Ohi Garoviydan o'rganadi. Uning hofizlik va bastakorlik mahorati haqidagi xabar Husayn Boyqaroga borib yetadi. Shundan keyin u saroyga taklif qilinadi. U yerda o'sha davrning musiqa arboblari Ustod Shodi, G'ulom Shodi, Hofizi Ushshoqiy, buxorolik Hofizi Mirakiy va Hoja Hamzayilar bilan faoliyat yuritadi, ular bilan birga Buxoroga borib musiqa mashg'ulotlarini davom ettiradi, Jomiy g'azallariga kuylar bastalaydi. Keyinchalik Darvesh Maqsudiy Hirotda vafot etadi.

Yuqorida keltirilgan satrlarda milliy san'atkorlarning ahloqi,

madaniyati, jamiyatda tutgan o'rni ifodalansa, boshqa bir shoirlar o'z asarlarida o'zbek musiqa madaniyatining turkiy madaniyatga taalluqli ekanligini tasdiqlaydilar.

XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan Haydar Xorazmiy o'zining lirik g'azallari, «Gulshan-ul-asror» nomli falsafiy didaktik dostoni bilan shuhrat qozongan edi. Shoir bu asarida odob-ahloq, mehnat va mehnat ahliga chuqur muhabbat, badiiy adabiyotning qudratiga oid muhim masalalarni ifodalab bergan. U musiqa san'ati borasida quyidagilarni yozadi:

*Turk zugurudir ochunida bu kun,*
*Boshlak uluk yil bilan turkona un.*
*Rost qil ohangi «Navo» u «Ushshoq»,*
*Tuz yotugon birla shu turguni sos.*
*Turk surudini tuzik birla tuz,*
*Yaxshi ayolgu bila kukla qobuz.*

Bunda turk lahjasi va turkona un (kuy, ohang) tufayli boshining ko'klarga yetganini, turkcha qo'shiqning mahorat bilan ijro etilishi singari fikrlar o'z ifodasini topadi. Nombar qilingan «Hijoz» va «Navo» maqomlarining turklarga ham aloqadorligini ta'kidlab o'tadi.

Alisher Navoiy o'zidan oldin yashab ijod etgan atoqli shoirlar hofiz Kamoli Xo'jandiy, Nosir Buxoriy, Ibn Yamin singari ajoyib so'z ustalari to'dasiga yetakchilik qilgan. Navoiy ijodida musiqa san'ati ham katta o'rin tutgan. Quyida shoirning hofiz radifli she'ri misol keltiriladi:

*Chekti bulbul kibi ming laxz ila doston hofiz,*
*Yo'q aningdek yana bu davrda xushxon hofiz.*

*Davr o'qir chog'da ajib fitnalar aylar izhor,*
*Yo'q aningdek yana sarfitnayi davron hofiz.*

*Hofiz etgan kibi haq lutfi oni qur'onda,*
*Bo'ldik oning dog'i har xolida qur'on hofiz.*

*Jon olur na'masi ul ruh g'izosi birla,*
*Xalq joning qilur o'z bazmida mehmon hofiz.*

*Gar uning jon olur oni desa bo'lgaymu dadarig',*
*Kim fido boshdin ayog'ingga sening jon hofiz.*



*Sendadur na'mai Dovud ila insofi Masih,*
*Bordurur yo'q esa davron farovon hofiz.*

*Ey Navoiy, dema laxniga nedin bo'lding sayd,*
*Xalq saydiga koni o'yla xush ilhom hofiz.*

She'r satrlarida Alisher Navoiyning hofiz ahliga bo'lgan chuqur hurmat-e'tibori, xonanda san'atini ulug'lash, xushxon hofizlarning ham uchrashi singari sifatlar ifodalangan. Bu she'rda boshqa shoirlar she'rlarida bo'lganidek, miloddan avvalgi X asrda yashab o'tgan afsonaviy yahudiylar payg'ambari Dovudning nomi tilga olinadi. Har xil afsona, rivoyatlar va folklor asarlarida yozilishicha bolaligida cholg'uchi bo'lgan Dovud musiqa san'atining piri hisoblangan. Shu sababdan ham «Na'mayi Dovud» iborasi qo'llanilgan.

XV asr oxiri, XVI asr boshlarida Ali Kormal ismli xonanda, sozanda va bastakor o'tgan. Marvda tug'ilib o'sgan bu san'atkor haqida biror-bir ma'lumot bo'lmasa-da, lekin uning mahoratli xonanda va sozanda sifatida shuhrat qozonganligini zamondoshlari aytib o'tishgan. Ali Kormal kosib oilasidan bo'lgan. O'zi ham kosibchilik bilan shug'ullanganligi sababli uni «Tun tikuvi» taxallusi bilan atashgan.

Boshqa bir mutrib, sozanda va shoir Amir Aliqambar Samarqandiy zamonasining ko'zga ko'ringan zabardast musiqa donishmandlari qatoridan o'rin olgan. U XVI asr oxiri, XVII asr boshlarida yashagan. Samarqand shahrining Muliyon guzarida san'atkor oilasida tug'iladi. Musiqa nazariyasi va unga aloqador ilmlarni otasidan o'rganadi. Otasi vafotidan keyin maqom yo'llari ilmini yanada puxtalash maqsadida Buxoroga boradi va u yerdagi mashhur musiqashunos olim, Sharq musiqa nazariyasining taniqli bilimdoni Mahmud Kavkabiydan musiqa ilmini yanada chuqurroq o'rganadi. So'ngra u Samarqandga qaytib keladi va shu shaharda musiqa ta'limi bo'yicha maxsus maktab tashkil qiladi, bu fanni yanada rivojlantiradi, eng muhimi, Buxoro musiqa madaniyatining Samarqandda ommalashuviga katta hissa qo'shadi.

Aliqambar Samarqandiy o'zi tashkil qilgan musiqa maktabida taniqli musiqa arboblari: Darvesh Buzg'oloni Samarqandiy, Mavlono Mir Haqqi, Ustod Abdulsattor Qonuni, Ustod Tulaki Noyi, Ustod Arabnavoi Qobuzi, Mahdumzodai Kotibi Samarqandiy va boshqalarni tarbiyalagan edi. Bu ustoz darajasiga yetishgan san'atkorlarning ko'pchiligi xonandalik san'atini yaxshi egallaydilar. Ayrim ma'lumot-larga qaraganda mazkur musiqa maktabi Samarqand musiqa madaniyati rivojlanishida muhim rol o'ynagan edi.

Amir Shohi (Mavlono Amir Shohiy xonanda) – haqiqiy nomi Malik ibn Jaloluddini Firuzkuxi. Xonanda, cholg'uchi, bastakor XVI asr oxiri, XVII asr boshlarida yashagan. Bu ustoz Sabzavorda tug'ilgan. Musiqa nazariyasi va ijrochilik amaliyotini Hindistonda so'ngra Buxoroda o'zlashtirgan. U barbat, qonun va rubobda mahorat bilan chalgan. Amir Shohi Bobur saroyida xizmat qilgan chog'larida «Navo» maqomi yo'lida «Chambar» usuliga asoslanib «Amali Shahriyori Jahon» ashulasini (she'ri o'ziniki) yaratadi. Bundan tashqari «Shohi» taxallusi bilan bir qator g'azal va ruboiylar ham yozgan.

Ali Shunqor ismli xonanda va bastakor XV asrda yashab ijod etgan, Hirotda tug'ilgan. Bir qator yaratgan asarlari Hirot malikasi To'tibegimga bag'ishlangan. U «Husayniy», «Iroq» va «Dugoh» maqomlarining yo'llariga asoslanib yaratgan kuylarini «Turkzarb» va «Zarbulfatx» vaznlarida ijod qilgan. Ali Shunqor yaratgan mashhur asarlaridan birini «Savti Bog'im» va «Naqshi Begim» deb ataydi.

Ajoyib bastakor Darvesh Buzg'oloni Samarqandiy XVI asr oxiri, XVII asr boshlarida yashab ijod etgan. U Samarqandda tug'ilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda u o'sha davrning mashhur musiqashunosi Aliakbar Samarqandiydan musiqa nazariyasi va amaliyotini o'rganadi. Bastakor ustoz darajasiga yetganidan keyin yaratgan barcha asarlarini ustozi Aliakbar Samarqandiyga bag'ishlaydi. U Samarqandda vafot etadi.

XIX asrda o'zining she'riyati bilan mashhur bo'lgan Muhammad Rizo Ogahiy yaratgan g'azallarida ishq ohangi ostida siyosiy-ijtimoiy qarashlarini ham ustalik bilan ifodalagan edi. Ba'zi she'rlarida o'zining ruhiy kechinmalari, dard-alami, sof muhabbat va tasavvuf mavzularini ifodalaydi. Ogahiyning xonandalarga bo'lgan chuqur hurmati va ularga qarata qilgan murojaati quyidagi misralarda bayon qilingan:

*Ey mutribi Gulchehra, tuz sozingni ovozing bila,*
*Kim xonu dil bo'lsin fido, ovozinga sozing bila.*
*Sozing eshitmoqqa bari bazm ahlidururlar muntazir,*
*Kel soz vaqtin bo'ldi bu kecha, o'tirmagil nozing bila.*
*Nozing base ko'bdur, vale, sozing bag'oyat oz erur,*
*Qilgin mubaddil ul kuyin bir lahza bu ozing bil.*
*Gahi Iroqi, gah Xijoz ohangini soza aylabon,*
*Qil sarafroz Ushshoqni lahn falak toring bila.*
*O'tgil Navodin istasang dard ahlini kuydurgali,*
*Tuz Rost Qonuni aro Raviy Chavandozin bila.*



*Turgizgusidur har damin yuz ming o'liknikim sani,*
*Tong yo'q maseho gar desam bu naya'i i'jozing bila.*
*Davron g'amidin Ogahiy mahzun erur, shod etma oni,*
*Dilkash navolar soz etib jonparvar ovozing bilan.*

Shoir o'z davrida mavjud bo'lgan cholg'u asboblari, xonanda va sozandalar amaliyotida mavjud bo'lgan maqomlar nomlarini to'laroq aks ettirishga intilgan. Bundan tashqari shoir san'atkorlarning xilma-xil kayfiyatlari, ruhiy holatlari, nozlanish singari xulq-atvorlarini ifodalash bilan bir qatorda, xonandaning ovozi, hatto o'likni tiriltirish qobiliyatiga ham ega ekanligini sharhlab o'tadi.

Ogahiy musiqa ahliga bag'ishlab yozgan boshqa bir g'azalida tarki dunyochilikka qarshi dunyoviy muhabbatni, hayotdan zavqlanish, do'stlik, ulfatchilik kabilarni madh qiladi. G'azal misralari ila shaxsiy hayoti, kayfiyati, ba'zida tushkunlikka ham berilishi va nihoyat musibatlardan vaqtincha bo'lsa-da uzoqlashish maqsadida san'atkorlar – xonanda, sozanda, mutrib, raqqosu raqqosalar davrasida taskin topmoqchi bo'ladi.

Ogahiy o'n yilga yaqin Xorazm xoni saroyida xizmatda bo'lgan. Shuning uchun saroy san'atkorlari, ayniqsa, raqqosalar san'atini to'laroq ifodalashga harakat qilgan. U hayotning og'ir damlarida san'atkorlarni yordamga chaqirgan. Chunki uning qalbidagi g'am-g'ussalarni faqatgina xonanda yoki sozanda tushunib, tasalli berib, san'at bilan zavqlantiribgina qolmay, balki inson undan ruhiy ozuqa ham oladi.

Shoirlarning musiqa san'atini o'z ichiga olgan she'rlari ba'zida u yoki bu tarixiy sharoitda yuzaga keladigan, xalq uchun odat tusiga kirgan marosimlarni ham ifodalagan. Chunonchi, Sadriddin Ayniyning Buxoro madrasalaridagi mullabachchalar orasida bo'lib turadigan «Muborakbodlikka» bag'ishlangan she'ri misol bo'ladi. Bu she'rda bo'lajak bazm-o'tirishga taklif qilinadigan xonanda va sozandalar aytib o'tilgan.

Yuqorida keltirilgan she'rlar va ma'lumotlarda musiqa san'atining deyarli barcha janrlari, shakllari, cholg'u asboblari aytib o'tiladi. Bunda musiqa asarlari insonning kundalik hayoti, turmushi bilan chambarchas bog'langanligi o'z ifodasini topadi. Shoirlar musiqa san'atini tushunibgina qolmay, balki o'zlarining kundalik hayotlari, ichki kechinmalari, dunyoqarashlari va g'oyalarini ham shu san'at bilan bog'laganlar.

O'zbek xonanda va sozandalarining o'tmishdagi hayot tarzlari.

chalish va aytish uslublari, yaratgan yuzlab asarlari, asos solgan maktablari, ijod qilgan yo'llari, musiqaga oid nazariy va tarixiy ilmiy izlanishlari singari bir qator masalalar yetarlicha ochilmagan.

Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'rta asrlarda markaziy shaharlardan Buxoro, Hirot, Samarqand, Xorazm, Xuroson singari amaldorlar saroylari bo'lgan joylarda xonandalar va sozandalar ijod va ijrochilik faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida to'planishgan.

Mohir sozandalar ijrochilik amaliyotlarida mukammal chalish uslublarini egallagan holda shu asboblari uchun maxsus asarlar yaratib, bu asarni asbob nomi bilan ataganlar. «Amali Setor» yoki «Naqshi Setor» va «Saraxbori setor». Hozirgi musiqa madaniyatimizda ham «Dutor Bayoti» kabilar shunday usul qatoriga kiradi.

Ayrim sozandalarning nomlariga ular chaladigan asbob turi qo'shilib aytilgan: «Abubakri rubobi», «Ahmadi g'ijjak» va boshqalar. Mashhur qo'shnaychi Ahmadjon Umurzoqov qo'shnayni mahorat bilan chalganligi tufayli uni «Ahmadjon qo'shnay» nomi bilan atashgan.

Buxoro amiri saroyida inqilobga qadar cholg'u asboblaridan karnay, surnay, qo'sh nog'ora, dul nog'ora, rez nog'ora singari asboblar saqlanadigan maxsus xona «nog'oraxona» deb atalgan. Mana shu xildagi nog'oraxona Hirotda ham bo'lgan.

Ijod qilish iste'dodiga ega xonanda va sozandalar musiqa yaratish yo'lida ham faoliyat ko'rsatadilar. Ular asosan u yoki bu maqom yo'lida, masalan «Iroq», «Navo» yo'llarida «Savt», «Amal», «Peshrav» singari asarlar yaratganlar. Ma'lum bir usul asosida xilma-xil maqom yo'llari ham ijod qilingan. Masalan, «Gardun» usulida «Peshravi Navo» singari. Ba'zi ijodkorlar yaratgan asarlariga o'z nomlarini ham qo'shib qo'yardilar: «Peshravi Poyanda», «Amali Poyanda» kabilar. Bunday uslub hozir ham xalq xonandalari va sozandalari amaliyotida qo'llaniladi. Masalan, u yoki bu maqom qismi yoki bo'lmasa ashula mazkur ijrochi uslubiga mos bo'lsa va boshqa ijrochilarning shu asarni ijro etish uslubidan farq qilsa, unga hofizning nomi qo'shiladi: «Sodirxon Ushshog'i», «Hoji Abdulaziz Ushshog'i», «To'ychi hofiz Ushshog'i», «Abdurahmonbegi» singarilar. Ba'zida u biror-bir joyda o'ziga xos uslubda va boshqa joylardagi ijrodan farq qilsa ham shu joyning nomi bilan aytilgan. Bunga «Samarqand Ushshog'i», «Qo'qon Ushshog'i», «Buxoro to'lqini», «Buxoro Shashmaqomi» kabilar misol bo'ladi.



Xalq xonanda va sozandalari orasida biror ijrochining uslubiga taqlid qiladigan ijrochini «Taqlidchi» deyishgan. Chunonchi, «Xoja Muhammad uslubiga taqlidchi». Maqomlarning birgina Savtlarini ustalik bilan ijro etuvchi xonandalarga «Savtxon» deyilardi. «Abdulaziz Savti», «Abdusamadbegi Savti», bizga zamondosh mashhur hofiz Domla Halim Ibodovni ham «Domla Halimi Savtxon» deyishardi.

Ayrim ashula, qo'shiqlarning nomlari yaratilgan joylari bilan bog'langan. «Xuroson qo'shiqlari», «Movarounnahr qo'shiqlari», bizning davrimizda Farg'ona katta ashulasi deyilmoqda. Ayrim xonandalar esa o'zlari yashagan joy nomi va kasb-hunarlarini ismlariga qo'shib aytganlar. Masalan, «Amir Aliakbari Samarqandiy», «Darvesh Buzg'oloni Samarqandiy», «Mahmudzodayi Xorazmiy», «Mahmudiy Nasafiy», «Darvesh Maqsudiy Andijoniy», «Darvesh Shayxiy», «Qalandari Xisraviy» yoki «Kuloli Pir Muhammadiy Samarqandiy».

O'tgan asrlarda shinavandalar va ustozlar orasida kasbini mukammal biladigan, bir qator shogirdlarni tarbiyalagan, ijrochilik va ijro sohasida shuhrat qozongan ustoz san'atkorlarga maxsus unvon ham berilgan. Masalan, «Mutribi Movarounnahr» unvonini hozirgi Respublika xalq hofiziga qiyoslash mumkin.

O'rta asr musiqa ijodi uslublari ustoz maqomchilar va ayrim bastakorlar merosini ilmiy tahlil qila bilgan to'plovchilar faoliyatida ham uchrab turadi. Masalan, ustoz Ota Jalol Shashmaqomning Mushkilot qismlarini tartibga keltirgan (solgan), ayrim maqom sho'balarini kengaytirgan, rivojlantirgan va qo'shimcha qismlar bastalagan. Bu ustoz, Segoh maqomiga Savt usulida uch qismli sho'ba bastalagan. Bu sho'ba «Savti Jaloliy» deb ataladi.

Shashmaqom ijrochilaridan Domla Halim Ibodov «Sabo»ga «Avji Dugoh»ni kiritadi. Boshqa bir buxorolik mashhur surnaychi – mehtar Kamol «Iroq» maqomiga birinchilardan bo'lib «Avji Muhayyar»ni kiritgan edi.

Bastakor Matniyoz Yusupov xalq kuylarini to'plab notaga yozish jarayonida ham ularga ijodiy yondoshadi. Chunonchi, «O'ynar» xalq qo'shig'iga baland avjlar kiritadi. Bundan tashqari u tuzilma orasida ko'p taktli cholg'u qismlarini kiritishi natijasida kuyning hajmini kengaytiradi. U ayrim cholg'u kuylarini she'rlar kiritish yo'li bilan ashula yoki qo'shiqqa aylantiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan «Peshrav»lar Xorazmning «Rost» maqomi cholg'u qismida to'rttagacha yetgan.

AXBOROT RESURS MARKAZI Inv. № 1595

O'zbek musiqa ijodkorlari ham o'zlari yaratgan ayrim kuylarni nomlari bilan atashgan. Masalan, Buxoro Shashmaqomida Saqili Ashkullo, Saqili Islimxon, Muhammasi Mirzohakim, Muhammasi Nasrullo, Muhammasi Hojixo'ja singarilar bo'lsa, Xorazm maqomlarida Murabbayni Komil, Muhammasi Feruz, Saqili Mirzo, Saqili Muhrxon, Feruz I, II, Savti Feruz, Saqili Niyozxo'ja, Saqili Sulton va boshqalar uchraydi.

Keltirilgan she'riy namunalar va boshqa ma'lumotlar o'zbek musiqa sozandalik va xonandalik san'atining ko'p asrlik an'analarga boyligi hamda bu an'analarning xalq musiqa ijodkorlari tomonidan yangi shakl, yangi mazmunda to'xtovsiz davom ettirilayotganligi va boyitilayotganligidan dalolat beradi.

## O'ZBEK QO'SHIQCHILIK SAN'ATINING MAHALLIY USLUBLARI

O'zbek xalqining an'anaviy qo'shiq merosida asosan to'rtta xonandalik mahalliy uslub mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Buxoro – Samarqand xonandalik uslubi.
2. Xorazm xonandalik uslubi.
3. Farg'ona – Toshkent xonandalik uslubi.
4. Surxondaryo – Qashqadaryo xonandalik uslubi.

### BUXORO — SAMARQAND XONANDALIK USLUBI

O'rta Osiyoning madaniyat markazi bo'lgan Buxoro va Samarqandda o'zbek musiqa san'atining xususiyatlari deyarli boshqachadir. Bu xususiyatlar meros mavzusiga va janrlari hamda musiqa hayoti xarakteriga taalluqlidir. Buxoro va Samarqand mahalliy uslubi xususiyatlarining muhim farqi musiqa merosi va ijrochilikning ikki turga – og'zaki an'anadagi professional san'at va folklorga bo'linishidadir. Musiqa folklorining mohir namoyandalari bilan bir qatorda bu yerda professional san'atkorlar – sozanda va hofizlar katta o'rin tutib, ular maqom va boshqa professional musiqa janrlarining bilimdon ijrochilari sifatida tanilgan. Kichik shakldagi ma'lum turkumni tashkil etuvchi xilma-xil mazmunga ega bo'lgan raqs-o'yin qo'shiqlarining ijrochilari – sozandalar ham keng e'tiborga ega bo'lganlar.

Bu qadimiy shaharlarda cholg'u asboblari turlarining boyligi, marosim qo'shiq-kuylarining xilma-xilligi xarakterli bo'lishi bilan birga, eng yaxshi ijrochi xonanda va sozandalar ishtirokida musiqa va she'riyat kechalarining muntazam o'tkazilib turilishi ham odat bo'lgan edi. Maishat, turmushning shaharcha tarzi ashulachilar, raqqos va raqqosalar hamda sozandalar ansambllarining o'ziga xos tusda keng rivojlanishiga ham imkon bergandi.



Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi o'zbek musiqa folklori esa ko'p jihatdan tojik musiqasi bilan ma'lum darajada umumiylikka ega bo'lib, tarixiy taqdiri deyarli o'xshash bo'lgan har ikkala qardosh xalq – o'zbeklar va tojiklarning bab-baravar darajadagi musiqa merosidir. «Shashmaqom» bu fikrimizning yorqin misoli bo'la oladi.

«Shashmaqom» olti maqomdan tashkil topgan turkum bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: «Buzruk maqomi», «Rost maqomi», «Navo maqomi», «Dugoh maqomi», «Segoh maqomi», «Iroq maqomi».

«Maqom» asli arabcha so'z bo'lib, «o'rin», «joy», «makon», «parda» ma'nolarini anglatadi.

Tanburning torlari ko'rsatkich barmoqqa kiyiladigan noxun yoki tabiiy tirnoq vositasida chertib chalinadi. Bu cholg'u asbobida maqom yo'lidagi boshqa yirik cholg'u kuylari ijro etiladi, shu bilan bir qatorda hofizlarga jo'rnavozlik vazifasi bajariladi. Bundan tashqari, Buxoro musiqa amaliyotida tanbur, nay va doira sozlaridan iborat cholg'u ansambli an'anaviy tus olgan. Maqomlarning ashula yo'llarini ustoz hofizlar kuylashadi. Ularda kuylangan mumtoz she'riy namunalarida esa ikki tillilik an'anasi namoyon bo'lib turadi, ya'ni, maqom ashula yo'llarida aruz vazniga asoslangan o'zbek va tojik she'rlarini qo'llash mumkin.

Olti maqomning har biri o'ziga xos tovush pardalariga ega bo'lib, bu pardalar asosida bastakorlar cholg'u kuy va ashula yo'llarini yaratdilar. Binobarin, olti maqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan – cholg'u va ashula yo'llaridan iboratdir. Bunday asarlarni esa ustoz-shogird maktabida tahsil ko'rgan kasbiy cholg'uchi va ashulachi hofizlargina malakali ijro eta oladilar.

Kasbiy cholg'uchilar orasida tanbur – torli chertma sozi keng qo'llaniladi. Bu sozda noksimon, o'yma kosa va unga ulangan dasta bo'lib, tut yog'ochidan tayyorlanadi.

Tanburda torlarning soni uchtadan oltitagacha bo'lishi mumkin. Ammo hozirgi davr ijrochilik amaliyotida ko'proq 3 simli tanbur qo'llanilib, o'zbekistonlik hofizlar asosan, o'zbek tilidagi she'riyat namunalari asosida kuylaydilar. Bunda ayniqsa, Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Mashrab, Bobur, Muqimiy kabi shoirlarning she'rlari keng qo'llaniladi. Domla Halim Ibodov, Ota Jalol Nosir, Ota G'iyos

Abdug'ani, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Levi Boboxonov kabi ustozlar olti maqom turkumining mahoratli ijrochilari edilar.

## XORAZM XONANDALIK USLUBI

Xorazm musiqa uslubi, shu vohadagi xalq qo'shiq va laparlari turli marosim, tomosha va o'yin, raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik, maqom san'ati kabi kasbiy musiqa an'analaridan tashkil topadi. O'zbek musiqasining tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm musiqasi ayni vaqtda o'zgacha tarovatga ega bo'lib, uning ma'lum darajada turkman, ozarbayjon musiqasiga yaqin jihatlari ham bor.

## XORAZM ASHULACHILIK SAN'ATI

Xorazmda ashulachilik san'ati ravnaq topgan bo'lib, ashulachilarni xalqda ko'proq «go'yanda» deb atashadi. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki, u asosan mumtoz she'riyat namunalariga asoslanadi. Kuy ohanglari esa qo'shiq va laparlarga nisbatan keng rivojlangan bo'lib, ovoz ko'lami (diapazoni) bir oktava va undan ortiq bo'ladi.

Xorazmda «Suvora» nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari mavjuddir. «Suvora» so'zi fors-tojikcha bo'lib, otliq ma'nosini bildiradi. Ustozlar «Suvora» ashula yo'llarini «Ot tuyog'idan hosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ularga asoslangan kuylarni ifodalaydi», deb ta'kidlaydilar. Xorazm suvoralari Navoiy, Mashrab, Nodira, Zaliliy, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabi shoirlarning she'rlari asosida aytiladi.

Xorazmda suvora ijrochilarining didilashma yoki diydalashma deb yuritiladigan o'ziga xos musobaqalari o'tkazib turiladi. Bunday musobaqada qatnashayotgan bir necha ashulachining har biri dastlabki (birinchi) ashulachi taklif etgan ashula kuyi asosiga yangi she'rlar bog'lab, navbatma-navbat kuylaydilar. Bu ijodiy vazifani yuqori mahorat bilan bajargan ashulachi didilashma musobaqasida g'olib bo'lib chiqadi. Suvoralarning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy) kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Xorazmda suvora ashula yo'llarining ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan ataladi:

1. O'n ikki suvoradan iborat «Savti Suvora»lar turkumi. Bu turkumdagi har bir suvora rim raqami bilan belgilanadi. Masalan, «Savti Suvora I», «Savti Suvora II», «Savti Suvora III», «Savti Suvora IV» va hokazo. Mazkur turkumdagi barcha Suvoralar 6/8 o'lchov vaznidagi doira usullari bilan ijro etiladi.



2. Suvoralarning yana bir turkumini yirik shaklli suvoralar majmuasi tashkil etadi. Bu suvoralar turkumidagi har bir suvoraning maxsus nomi bo'lib, ular «Suvora», «Chapandozi suvora». «Yakparda suvora», «Xushparda suvora», «Kajxang suvora» deb ataladi. Bu suvoralarda 6/8, 3/4. 3/8 ritm o'lchovlari va ularga muvofiq doira usullari qo'llaniladi. Shuningdek, Xorazmda suvoralardan tashqari yana alohida ashula yo'llari ham mavjud bo'lib. ulardan biri «Mustahzod» deb ataladi.

## XORAZM MAQOMLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Xorazm maqomlari XIX asr boshlarida shakllangan bo'lib, ular ham Shashmaqom kabi olti maqomdan iboratdir. Bu maqomlar quyidagicha nomlar bilan ataladi: «Rost», «Buzruk». «Navo». «Dugoh», «Segoh», «Iroq».

Har bir maqom cholg'u va ashula bo'limlaridan tashkil topadi. Bu bo'limlar Xorazm maqomlarida «Chertim yo'li» va «Aytim yo'li» deb nomlanadi. «Chertim yo'li»da Tani maqom. Tarje'. Peshrav. Muhammas, Saqil va Ufor nomli cholg'u kuylar bo'ladi. Maqomlarning cholg'u kuylari tanburda, dutorda, ayrimlari surnayda yoki xalq cholg'ulari ansamblida ijro etiladi.

«Aytim yo'li»da esa «Tani maqom». «Talqin». «Nasr», «Tarona», «Suvora», «Naqsh», «Fayod» kabi ashula yo'llari mujassam etilgandir. «Maqom» ashula yo'llarida Jomiy, Navoiy, Sakkokiy, Fuzuliy, Mashrab, Munis, Ogahiy kabi mumtoz shoirlarning she'rlari qo'llaniladi.

Xorazm maqomlarining mahoratli va taniqli ijrochilari qatorida Niyozjon Xo'ja, Komil Xorazmiy, Feruz (Muhammad Rahim, II-XIX asr), Matyoqub Xarratov, Matpano ota Xudoyberganov, Matyusuf Xarratov, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov kabi san'atkorlar nomini aytish lozim.

## FARG'ONA – TOSHKENT XONANDALIK USLUBI

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an'analarning majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, lapar, yalla, qo'shiq, ashula

janrlari, shuningdek, katta ashula, maqomchilik kabi kasbiy musiqa hamda bastakorlik an'analari o'z aksini topgan.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida keng tarqalgan katta ashula bu yirik hajmli ashula bo'lib, uning kuy ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun mo'ljallangandir. Katta ashulani odatda ashulachi-hofiz yoki 2-4 hamnafas ashulachi-hofizlar aytadilar. Bunda jo'rnavoz cholg'ular qo'llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning falsafiy, pand-nasihat va boshqa mavzulardagi she'riy namunalari qo'llaniladi.

Katta ashulalar ikki, ikki yarim oktava oralig'ida bo'lgan rivojlangan kuylarga ega bo'lib, erkin ritm-o'lchov asosida kuylanadi. Bu ashulalar «Patnusaki ashula» yoki «Likobi ashula» deb ham yuritiladi. Buning sababi shundaki, ashulachi-hofizlar ijro paytida qo'llarida patnis, likob (tarelka) ushlaydilar.

Boltaboy Rajabov, Hamroqul Qori, Muhammad bobo Sattorov, Akbar Qori Haydarov, Erka Qori Karimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Berkinboy Fayziyev kabi hofizlar katta ashulalarning mahoratli ijrochilari edilar. Bu san'atkorlar kuylagan «Ko'p erdi», «Bir kelsun», «Ey dilbari jononim», «Adashganman», «Do'stlar», «Yovvoyi chorgoh», «Bu gulshan soz» singari katta ashulalar xalqimiz orasida ma'lum va mashhurdir.

## SURXONDARYO – QASHQADARYO MUSIQA USLUBI

O'zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo – Qashqadaryo aholisining katta qismi Respublikaning boshqa viloyatlaridan farqli ravishda, o'tmishda asosan chorvachilik, ayrim qismigina dehqonchilik bilan shug'ullanib, hayot kechirar edi. Bu viloyatlar xalqi qalbida, musiqa folkloridan chorvadorlar mehnati, ko'chmanchilik hayoti haqidagi qo'shiqlarning xarakterli o'rin egallashi ham ana shundandir. Ularning musiqa hayotida doston ijrochilari, ya'ni baxshi-shoirlar ham muhim o'rin tutgan.

## SURXONDARYO – QASHQADARYO AN'ANAVIY MUSIQA CHOLG'ULARI

O'lkada mahalliy xalq orasida musiqa cholg'ulari uzoq tarixiy o'tmishdan buyon mehr qo'yilib, ardoqlanib, ijro etib kelinayotgan sozlar bo'lib, ular do'mbira, changqobuz, doira, qo'biz, cho'pon nay yoki g'achir nay, sibiziq (sibizg'a) kabilardir.



**Do'mbira** sozi ikki torli chertma cholg'udir. Bu cholg'u Surxondaryo – Qashqadaryo mahalliy musiqasida keng tarqalgan sozlardan bo'lib, u baxshi-shoirlar va cho'ponlar tomonidan zavq bilan sevib ijro etiladi.

**Changqobuz** esa maxsus tilchali asbob bo'lib, u temir yoki suyakdan tayyorlanadi. Temir changqobuz odatda aylana shaklida bo'ladi. Uning o'rtasidan 7-9 sm. uzunlikda po'lat til o'tkaziladi. Changqobuzni chalish uchun uni chap qo'l bilan tishlarga bosib turish kerak va ayni vaqtda o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i ta'sirida tilchani to'lqinlantirib turish lozim. Bu cholg'uni nafaqat kattalar, balki bolalar ham sevib chaladilar.

## YALLACHILIK SAN'ATI

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida xotin-qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida jumladan, tarafma-taraf bo'lib lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marosimi aytishlari bo'lgan yor-yor, kelin salom va ularni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi.

Yalla – bu band-naqorat shakliga ega aytim bo'lib, u raqsga tushib kuylanadi. Yakkaxon yallachi doira jo'rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqoratni esa davrada hozir bo'lganlar qo'shilib aytadi.

Yakka holdagi yallachi odatda, o'z aytishlariga dutor yoki doira sozida jo'r bo'ladi. Yallachilar ansambli esa 2-3 ayoldan iborat bo'lib, faqat doira jo'rligida kuylaydilar. Xotin-qizlar davrasida hozir bo'lgan yallachilarning repertuari asosan qo'shiq, lapar, yalla va to'y marosimi aytimlaridan tuzilgan bo'ladi. Hadyaxon Hamdamova, Lutfixonim Sarimsoqova, Rahima Mazohidova va Oyimqiz To'xtayevalar yallachilik san'atining mohir ijrochilaridir.

Yallachilikning yana bir ko'rinishi ham bor. U Namanganda «Satang» yallachilar turkumi shaklida bo'lgan (ya'ni ikki qism va undan ortiq bo'lgan). Ular katta yallalarni doira jo'rligida raqsga tushib aytganlar. Xolisxon Qirg'izboyeva va Saltanatxon Aliyevalar Namanganda taniqli satang-yallachilardandir.

## XALQ ASHULALARI

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari ham muhim o'rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo'shiq singari aytishlarga nisbatan ovoz doirasining kengligi hamda kuychan, so'lim ohanglari bi-

lan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo'lgan xalq she'rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she'riyat asosida aytiladi. Ashulalar ijod etilishiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin:

1. Xalq og'zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar.
2. Kasbiy musiqaga oid ustoz bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.

«Tanovar», «Ey nozanin», «Oydek to'libdur», «Farg'ona», «Ul parivash» singari xalq ashulalari nafaqat hofiz-ashulachilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kosiblar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. Shuningdek, bu turdagi ashulalar xotin-qizlar tomonidan ham ichkarida kuylangan. Jumladan, «Chaman ichra», «Tanovar»ning «Qora sochim» kabi ashula yo'llari dutor jo'rligida xotin-qizlar tomonidan sevib ijro etiladi. Ayni vaqtda «Nigorim», «Tandir», «Nisor», «Belboqcha», «Fig'on», «Chaman yalla» singari ashulalarni asosan kasbiy musiqachilar bo'lgan hofiz-ashulachilar kuylashadi. Bunda tanbur, dutor jo'rovozligi ko'p qo'llaniladi. Ashulalar an'anaga ko'ra turli yig'in va majlislarda, to'y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan. Choyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqalari ham o'tkazib turilgan.

## FARG'ONA – TOSHKENT MAQOM YO'LLARI

Toshkent va Farg'ona vodiysi bo'ylab keng tarqalgan hamda musiqa amaliyotiga joriy etilgan maqom yo'llariga nisbatan «Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari» iborasi qo'llaniladi. Bu maqomlar Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq bir turkumni tashkil etmay, alohida-alohida cholg'u kuy va ashula yo'llaridan tashkil topadi. Xususan, «Nasrullo I-V», «Munojot I-IV», «Ajam va Taronalar», «Segoh I-III», «Cho'li Iroq», «Miskin» kabi cholg'u kuylari, «Chorgoh I-V», «Bayot I-V», «Bayoti-Sheroziy I-V», «Ko'cha bog'i I-II», «Gulyor Shahnoz I-V», «Segoh», «Dugoh-Husayn I-VII», «Toshkent Irog'i» va yana shularga o'xshash boshqa ashula yo'llari Farg'ona – Toshkent maqom yo'llariga mansubdir.

An'anaviy ijroga ko'ra bu turdagi maqomlarning cholg'u kuylari ikki soz – dutor, tanbur, g'ijjakda yoki tanbur, dutor, nay, g'ijjak, doira cholg'ularidan iborat ansambl shaklida chalingan. Ashula yo'llari esa hofizlar tomonidan tanbur yoki cholg'ular ansambli jo'rligida aytiladi. Ushbu maqom ashula yo'llari Navoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy va boshqa mumtoz shoirlarning she'rlari asosida kuylanadi.



## ASHULACHILAR OVOZLARI TAVSIFNOMASI VA DIAPAZONI

Ashulachilar ovozlarining nomlari va diapazonlari (tovush oralari) quyidagilardan iborat:

1. Ayollarning yuqori ovozi – soprano.
2. Ayollarning pastki ovozi – alt.
3. Erkaklarning yuqori ovozi – tenor.
4. Erkaklarning pastki ovozi – bas.
5. Bolalarning yuqori ovozi – soprano yoki o'g'il bolalarning yuqori ovozi – diskant.
6. Bolalarning pastki ovozi – alt deyiladi.

Soprano ovozi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Koloratura soprano — juda katta diapazonga ega bo'lib, o'ta harakatchan bo'ladi. Bu ovoz o'zining juda ham tiniq va ingichka tembri bilan boshqa ovozlardan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu ovoz ansambl va xorga tavsiya qilinmaydi. Misol: Amerikalik ashulachi Imma Sumak.
2. Lirik soprano «do» birinchi oktava – «do» uchinchi oktava – yumshoq tembrli ovoz. Misol uchun: xalq artistlari Halima Nosirova, Saodat Qobulova, O'zbekiston xalq artisti Habiba Oxunova va boshqalar.
3. Dramatik soprano «do» birinchi oktava – kuchli ohangdor ovoz. Masalan: O'zbekiston xalq artisti Naima Po'latova, O'zbekiston xalq artistlari Komuna Ismoilova, Farog'at Rahmatova va boshqalar.

Alt ovozi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Metsso soprano 1 – alt deyiladi. «Sol» kichik oktava, «sol» ikkinchi oktava oralig'ida, yengil va to'liq jarangdor ovoz hisoblanadi. Masalan: Munojot Yo'lchiyeva, Mehri Abdullayeva.
2. Kontralto – «sol» kichik oktava – «re», «mi» ikkinchi oktava – juda quyuq ovoz. Masalan: Gavhar Tojiboyeva, Munojot Teshaboyeva.

Tenor ovozlar ikki xil bo'ladi:

1. Lirik tenor – «do» birinchi oktava – «do» uchinchi oktava. Juda sof jarangli ovoz. Masalan: O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Eson Lutfullayev, O'lmas Saidjonov va boshqalar.
2. Dramatik tenor – «do» birinchi oktava – «si bemol» uchinchi

oktava. Kuchli jarangdor ovoz. Misol uchun O'zbekiston xalq artistlari Sattor Yarashev, Mahmudjon G'ofurov, Komiljon Otaniyozov va boshqalar.

Bas ovozlari quyidagi turlarga bo'linadi:

Bariton – «lya» katta oktava – «sol» birinchi oktava.

Bas – «fa» katta oktava – «mi», «fa» birinchi oktava. Misol: O'zbekiston xalq artisti Qo'rqmas Muhiddinov.

Bas oktavist – «fa» kontr oktava – «do» birinchi oktava.

Bariton o'z tembri bilan baslarga va yuqori registr tovushlari tembri bilan tenorga yaqinlik xususiyatiga ega. Shuning uchun ham bu ovozni bas bilan tenor o'rtasidagi oraliq ovoz desa bo'ladi.

Bariton ikki xil bo'ladi:

1. Lirik bariton – yumshoq va harakatchan ovoz. Misol uchun: xalq artisti Jo'rabek Murodov, O'zbekiston xalq artistlari Sherali Jo'rayev, Kamoliddin Rahimov, xalq hofizi Muhiddin Qori Yoqubovlarning ovozlari lirik baritondir.

2. Dramatik bariton – kuchli va jarangdor ovoz. Misol uchun: O'zbekiston xalq artistlari Nasim Hoshimov, Sason Benyaminovlarni dramatik bariton deyish mumkin. Havaskorlik ashula va raqs ansambllari jamoalarini tashkil qilishda badiiy rahbar ovoz tembri va diapazoniga katta e'tibor berishi kerak.

## ASHULA AYTISH TEXNIKASI

### TALAFFUZ

Asarning badiiy matni so'zlarini tinglovchilarga aniq yetkazib berish vositasi talaffuz deyiladi. Talaffuz asarning g'oyaviy mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Agarda so'zlar poetik fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni atroflicha emotsional bo'yoqlar bilan to'ldiradi, chuqurlashtiradi. Demak, yakkaxon va guruhli ashulachilik san'atida so'z va musiqa bir-birini to'ldiradi va badiiy obraz yaratadi. Yaxshi so'z talaffuzi texnikasiga ega bo'lish yakkaxon, guruhli ashulachilik ijrochiligining zarur zer-zabarlaridan biri hisoblanadi. Asarning matnini to'g'ri va aniq talaffuz qilish uchun so'zlardagi mantiqiy urg'ularga, so'zning jonli tildagi talaffuz qoidalariga ahamiyat berish lozim.

Bu borada ish olib borilganda, avvalo qo'shiq matni mazmuni, undagi badiiy obrazlarni xonandalarga tushuntirish va ifodali o'qib



berish maqsadga muvofiqdir. To'g'ri so'z talaffuzi matn ustida ko'p vaqt sarflamasdan, balki uni qo'shiq aytish bilan birga ko'rsatib berish imkoniga ega. So'z va kuy bir vaqtda o'zlashtiriladi.

Aniq so'z talaffuziga erishish esa artikulyatsiya apparati til, tanglay, lablar, tishlar, jag'larning faoliyatiga bog'liq. Xususan, unli tovushlarni hosil qilishda og'iz bo'shlig'i va lablar muhim rol o'ynaydi. Ansambl rahbarlari talaffuz ustida ish olib borganlarida, so'zlarning aniq aytilishiga e'tibor berishlari lozim.

So'zning aniq va to'g'ri talaffuzi xonanda ovoziga ijobiy ta'sir qiladi. Ansamblda so'z talaffuzining yaxshi bo'lishi olib boriladigan mashqlarga va nutq apparatining ishlashiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lum mashqlar yordamida artikulyatsiya apparati rivojlantiriladi. Masalan, ularning faolligini oshirish uchun u, yu – lab unlilari, b, m, p, v, f – lab undoshlari yordamida bu, du, mu, yo', ku kabi bo'g'inlar tuzib, mashq qilib yoki o tovushlaridan foydalanib, «lya», «da», «na» kabi bo'g'inlarni talaffuz qilib, pastki jag'ni faollashtirish mumkin.

Shuningdek, d, z, k, l, n, r, s, t, sh undosh va a, o, u, i, ya, yu, e unlilardan «lya», «le», «lyu» va boshqa bo'g'inlardan tuzilgan mashqlar yordamida t, i, l faolligini oshirish mumkin. Masalan, qator so'zlar tuzib kecha-tun, shahar, daraxt, dorboz undoshlarini qattiq, unlilarni esa yumshoq talaffuz qilish yo'li bilan undoshlar talaffuzini yaxshilash mumkin. Undoshlarning yaxshi talaffuzi esa unlilarni yaqqol oydinlashtiradi.

Ashulachilik ijrochiligi tajribasidan ma'lumki, ko'p hollarda tovushlar bir bo'g'indan ikkinchi bo'g'inga ko'chirib talaffuz qilinadi. Masalan: shahrim so'zi «sha-hrim», «tosh-kent-lik» so'zi «toshke-ntlik», «oq-bu-lut-lar» so'zi «o-qbu-lu-tlar» deb va hokazo aytiladi.

Ma'lumki, orfoepiya qoidalariga binoan jarangli undoshlar so'zning oxirida jarangsiz bo'lib eshitiladi. B-p, v-f, d-t, z-s, g-k. Masalan, kitob-kitop, barg-bark, ildiz-ildis, baland-balant va boshqalar.

### XONANDALARNI TO'G'RI NAFAS OLISHGA O'RGATISH

Ovoz tarbiyasining asosiy mezonlaridan biri xonandalarni to'g'ri nafas olishga, uni ushlashga va tejamli sarflashga o'rgatish hisoblanadi. Nafas olishning ikki turi mavjud:

1. Aralash pastki qovurg'a — diafragma usulida nafas olish.
2. Zanjir yoki ulama nafas olish.

Pastki qovurg'a – diafragma usulida nafas olish.

Bu usul xonandalarga oldin tushuntirilib, keyin ko'rsatib berilishi kerak. Bunday nafas olishda pastki qovurg'alar kengayadi. Nafas olishda kiftlar va ko'krak qafasi ko'tarilmasligi kerak. Ashulachilarda nafas pastga – diafragmaga olinib, qorinning pastki qismi harakatda bo'ladi.

Nafas og'iz va burundan bir vaqtda olinadi. Nafas olishni o'rganish yakka ashula darslarida yaxshi natija beradi. Qo'llarni biqinga qo'ygan holda nafas olish kerak. Nafas olinishini kuzatish uchun qo'llarni qovurg'alar bo'ylab pastga, yon tomonga yurita berish va bunda qorin bo'shlig'ining oldinroqqa chiqishini, qovurg'alarning yon tomonga kengayishini kuzatish mumkin Nafasni rahbarning qo'l ishorasi bilan olib, bir tekis, shoshilmasdan chiqarishni ham o'rganish kerak.

Nafas asarning tempiga, jumlalarning katta-kichikligiga qarab bir maromda tez, yengil, tekis, chuqur olinadi. Demak, nafas olishda gavda, bo'yinning to'g'ri erkin holatda bo'lishiga, kiftlarning ko'tarilmasligiga va nafasning diafragmaga olinishiga erishish zarur.

Nafas tejam bilan sarflanishi kerak. Qo'shiq aytganda haddan tashqari ko'p nafas olish mumkin emas.

## ZANJIR YOKI ULAMA NAFAS OLISH USULI

Zanjir usuli ayrim polifonik xor asarlarida yoki cho'zib turiladigan tonika va dominanta organ punktlarida uzoq muddatgacha nafas olish mumkin bo'lmagan paytlarda qo'llaniladi.

Ma'lumki, asarning boshidan oxirigacha bir nafas bilan qo'shiq aytib bo'lmaydi. Ko'p ovozli katta asarlar ijro etishda, kuy cho'zilib qolmasligi uchun xonandalar birdaniga bir vaqtda emas, balki navbatma-navbat nafas oladilar. Ya'ni, bir xonanda nafas olganda, yonidagi ikkinchi xonanda ijroni cho'zishni davom ettiradi. Bu xonanda nafasni rostlagach, u boshqalardan ajralmagan holda ijro partiyasiga qo'shiladi. Natijada kuy uzluksiz taralaveradi. Bu usul zanjir yoki ulama nafas olish deyiladi.



## XONANDALARNI QO'SHIQ AYTISHGA TAYYORLASH

(Ovoz mashqlari)

Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlash jarayonida qilinadigan ishlar ham ovoz sozlash tarbiyasi turkumiga kiradi. Ma'lumki, har bir mashg'ulot xonandalarning ovozlarini qo'shiq aytishga tayyorlash va ohang eshitish qobiliyatlarini ko'zda tutuvchi mashqlarni bajarishdan boshlanadi.

Bu mashqlar 10-15 minut va undan ko'p davom etadi. Ovozni qo'shiq aytishga tayyorlash mashqlari ma'lum tartibda o'tkazilib, ovozni to'g'ri hosil qilishga, to'g'ri nafas olishga, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishiladi. Natijada xonandalarning ovoz imkoniyatlari mustahkamlanadi.

Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlashning turli uslublari mavjud:

– mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari bo'yicha kichik guruhlar bilan ishlash;

– ma'lum unli tovushlar bo'g'inlar va so'zlar yordamida ish olib borish;

– turli tovush yo'nalishlarida (legato, stakkato, markato, nonlegato) uslubida ish olib borish;

– turli dinamik (tovush kuchi) sur'at usullarida ish olib borish;

– ayrim xalq qo'shiqlari bo'lakchalaridan foydalanib ishlash;

– diapazonning ma'lum qismida (ma'lum registrda) kengaytirib ish olib borish.

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabgacha bo'lgan tartibda olib boriladi.

## AN'ANAVIY QO'SHIQ IJROCHILIGI BEZAKLARINI NOTA YOZUVIDA IFODALASH VA O'ZLASHTIRISH USLUBIYATI

Ma'lumki, o'zbek an'anaviy qo'shiq ijrochiligi qadim-qadimdan avloddan-avlodga ustoz-shogird an'anasi orqali og'zaki ravishda o'tib keldi va mahalliy uslublar zaminida rivoj topdi. Darhaqiqat, an'anaviy qo'shiq ijrochiligining eng yorqin xususiyatlari ana shu yo'nalishda uzil-kesil shakllandi.

Musiqashunos olim, maqom asarlarini amaliy va nazariy yoritib bergan san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Rajabovning yozishicha, «Shashmaqom bir qolipda qotib qolmadi, jamiyatning badiiy-estetik

talablari va tarixiy sharoitga qarab o'zgarib, rivojlanib, boyib, bir avloddan ikkinchisiga o'tib, takomillashib bordi[1]».

Shuningdek, san'atshunos olim M.Mullaqandov o'zining ilmiy tadqiqotida «Ishkami» (diafragmani ichkari qorin bo'shlig'i orqali), «Guligi» (tomoq orqali), «Binigi» (burun orqali) ashula aytish uslublarini yoritib bergan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, musiqa o'quv yurtlarida an'anaviy qo'shiq ijrochiligini amaliy o'zlashtirish borasida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Professional musiqa ta'limi tarmoqlari zimmasiga tushayotgan jiddiy talablar yanada mukammalroq, amaliy ijroga, o'quvga mos keladigan bezakli nota yozuvlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Bu mas'uliyatni mukammal bajarish uchun oliy va o'rta san'at o'quv yurtlariga mo'ljallangan serqirra jabhalarini, jilolarini aks ettiruvchi ixtisoslashgan o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratib nashr ettirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, an'anaviy qo'shiq ijrochilari qalblarni to'lqinlata oladigan ijroda nozik va nafis to'lqinlantirish, o'rama, nolish, zangula, hang kabi bezaklarni o'z ijrochiligida tadbiq qilishi mumkin. An'anaviy qo'shiq ijrochilari ushbu qiyinchiliklarni tinimsiz mehnat va mashqlar yordamida bartaraf etib, o'z ijrochilik ko'nikmalari bilan boyitib, an'anaviy ijro ko'nikmalari – bezaklarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasini uddalashlari lozim.

## ASARLARNI IJRO ETISHDAGI BEZAKLARNI IFODALASH BELGILARI

### 1. TO'LQINLANTIRISH

Xonandaning zarur ijro ko'nikmalaridan biri to'lqinlantirish ovozni pardaning o'zida tebratish yo'li bilan hosil qilinadi. Ushbu bezak to'lqinsimon chiziq (〰) bilan ifodalanib, nota ustiga yoziladi.



[1] I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent, 1963. 292-bet.





Shuningdek, ushbu bezakdan butun, yarimtalik va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish mumkin.

### 2. O'RAMA

Ushbu an'anaviy ijro bezak tovush balandligi legato yordamida bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg'alib o'tish yo'li bilan vujudga keladi. O'rama bezagi ko'rsatkich chiziqlar (↑↓) bilan ifodalanadi.

↑ – nota ustida yuqoriga qaratilgan ko'rsatkich chiziqcha tovush balandligining o'z asl darajasidan biroz ko'tarilishini bildiradi (taxminan yarim tongacha).

↓ – nota ustida pastga qaratilgan ko'rsatkich chiziqcha tovush balandligining o'z asl darajasidan biroz tushirilishini bildiradi (taxminan yarim tongacha).



### 3. NOLISH

Bu an'anaviy ijro ko'nikmasi. Bezakni ijro etishda ovozni bir pardadan ikkinchi pardaga sirg'anma harakatlantirilsa, o'ziga xos dardli ijro hosil bo'ladi. Nolish nota ustiga yoki ostiga qo'yilgan yoysimon chiziqcha bilan (◡) ifodalanadi. Nolish ijroda chuqur falsafiy ta'sirchanlikni, qalb nidosini ifodalashda juda muhim ahamiyat kasb etadi.



### 4. ZANGULA

Bu an'anaviy bezak tuya bo'yniga ilinadigan qo'ng'iroq ma'nosida «talab tuyasi»ni yoki yo'lda davom etishlik ma'nosini anglatadi. Zangula maqom ijrochiligidagi Zebo pari Avji turkni olishda ovozning

qo'ng'iroqdek jarangdorligini ifodalaydi. Zangula qo'ng'iroqqa o'xshash belgi orqali ifodalanadi.



### 5. HANG

Ashulani so'zsiz ijro qilish demakdir. Bu bezak «Shashmaqom»ning ko'proq saraxborlarida ijro qilinadi.

Misol: «Shashmaqom»ning «Buzruk» maqomidan namuna.




## DARS JARAYONIDA AN'ANAVIY QO'SHIQ IJROSINI O'ZLASHTIRISHGA OID TAVSIYALAR

Shubhasiz, an'anaviy qo'shiq ijro yo'llarining bezak-xususiyatlari aks ettirilgan nota yozuvini yaratish borasida ilk bor qilingan ishlar ayrim kamchiliklardan holi emas. Albatta, bu belgilar umuman yangicha nota yozuvlari emas. Amalda o'quv jarayonida qo'llanilib kelinayotgan nota yozuviga ayrim yangi bezaklar (belgilar) qo'shimcha kiritilishidan asosiy maqsad shundan iboratki, an'anaviy qo'shiq ijrochiligiga xos xush ohanglikni chuqurroq ifodalashda xonandalarga yordam tariqasida ushbu uslubiy ishlanma tavsiya etilmoqda. Shuningdek, nota yozuvi belgilari yordamida an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish o'qituvchi va talabaga katta mas'uliyat yuklaydi. O'qituvchi nota yozuvi belgilari yordamida an'anaviy qo'shiq ijrochiligini talabalarga o'rgatish davrida, qadim-qadimdan ijro uslubi bo'lib kelayotgan og'zaki ijro bilan qo'shib olib borishi maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan talaba nota yozuvi belgilarini jonli sadolanishda eshitib, ashuladagi nafas xushohangligini, o'rama, zangula, nolishlarni xotirasiga singdirib muhrlab oladi. O'qituvchi ashulani o'zi ijro etib ko'rsatishi, mashg'ulotlarning sifatli va ijodiy jarayonda samarali o'tishida katta ahamiyat kasb etadi.



Ashulaning ayrim jumlalarini ta'sirchan nolali qochirim bilan bir necha bor ijro etishda, talabaning ko'z o'ngida ashulaning ijro sifati amaliy jihatdan namoyon bo'ladi. Bu o'rinda jonli muloqot va eshitish xotirasi uyg'unlashib, ashulalarni o'zlashtirish uchun muhim mezon (zamin) yaratiladi.

Talaba ashulani o'rganish jarayonida ijroga o'zining ichki hissiyoti bilan yondoshib, kutilmaganda yangicha jozibali nolishlar ishlatishi ehtimoldan holi emas. Bunday ijodiy yondoshishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlamoq darkor. Faqat notada yozilganni ijro et, deyish talabaning imkoniyati va mahoratini cheklab qo'yadi.

Endi an'anaviy qo'shiq ijrosidagi ashulalarni o'rganishga va o'zlashtirishga o'tamiz. Bu o'rinda taqdim etilayotgan qisqa tahliliy izoh va uslubiy tavsiyalar amaliy mashg'ulotlarda yordam berishiga umid qilamiz.

## BADIIY BO'LIMDAGI ASARLARGA IZOH VA IJROGA TAALLUQLI QISQA USLUBIY TAVSIYALAR

### NASRULLOIY

«Shashmaqom» tarkibidagi «Buzruk» maqomining nasr bo'limiga kiruvchi ushbu ashulani shinavandalar, xonandalar ijrosida hozirgacha zavq bilan tinglanib kelinmoqda.

Hozir Respublika radio fonotekasida mashhur hofizlar Ochilxon Otaxonov, Tavakkal Qodirov, Mahmudjon Yo'ldoshev ijrosidagi shu ashulaning tasma yozuvi bor. Nasrulloiyning lad strukturasi VII pog'onasi pasaygan minor doriy ladiga to'g'ri keladi. San'atshunos olim I.Rajabovning ta'kidlashicha, «Nasrulloiyning diapazoni bir yarim oktavadan kengroq bo'lib, uning tovush qatori tarkibidagi Avji Turk boshlanadigan parda va pog'onalarni nota misolida shunday berish mumkin»:[1]




[1] I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1963. 169-bet.

Asarning boshlanishi tebratish yordamida o'ziga xos tembr, ta'sirchan ohangdorlik bilan kuylanadi. Ashulani ijro etishda ovozni ravon yurgizib, tovushlar bir-biriga xuddi zich qo'yilgandek sadolantiriladi.

Xonanda «Nasrulloiy»ni dardli ijro etish borasida nafis bezaklardan o'z o'rnida foydalanishi muhimdir.

O'qituvchi va talabaning e'tiborini ashulaning Avji Turkka chiqish oldidagi ikki nota ijrosiga qaratmoqchimiz.

Ushbu taktlarda bir necha bezaklar (nolish, to'lqinlantirish, forshlag) mavjud bo'lib, ularning aksariyati ovozning sirg'alish yo'li bilan ijro etiladi. Shundan keyin ashulaning Avji Turk, kulminatsion qismi bir necha nota qatorini qamrab olgan avjida, eng yuqori balandlikdagi notalarni xonanda qalbining jozibali otash nafasi bilan shunday tabiiy sadolantirish lozimki, tinglovchilar sehrlanib, rohatbaxsh ruhiy holatda huzur qilib orom olsinlar. Avjdan keyin ashulaning sadosida zavqli harorat biroz pasayib, yana mayinli va osoyishtali xayollarga chulg'anib, xotimaga qaytadi.

## SAMARQAND USHSHOG'I

«Shashmaqom»dagi «Rost» maqomida uchraydigan, «Ushshoq» nomi bilan mashhur asarlar eng qadimiy maqom yo'llaridan bo'lib, xalq orasida mashhurdir. Ko'pgina maqom yo'llari kabi «Ushshoq» deganda ma'lum lad tuzilmasi va shunga asoslangan kuy yo'li tushuniladi.

«Ushshoq» yo'li keng tarqalganligi tufayli uning turli variantlari mavjud. Ularning ba'zilari muayyan mahalliy musiqaning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, turlicha nomlanib kelingan. Masalan: «Samarqand Ushshog'i», «Qo'qon Ushshog'i», «Toshkent Ushshog'i», «Ushshoqi Sodirxon» va hokazolar.

Mashhur hofiz, bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov qalamiga mansub «Samarqand Ushshog'i» ashulasi (Zebuniso g'azali) musiqa merosimizning bebaho gultoji hisoblanadi. Mixail Tolmasov va, ayniqsa, Zaynab Polvonova, Saodat Qobulova, Tavakkal Qodirov, Maryam Sattorova, Matluba Dadaboyevalar ijro etgan «Samarqand Ushshog'i» betakrordir. Ushbu taklif qilinayotgan aynan ashula yo'li bo'lib, xonandalik ijrosining xususiyatlariga moslashtirib notaga tushirilgan. Ashula pastki pardalarda takt oldi sakkiztalik, o'n oltitalik notadan boshlanib, 4-6 taktlarda nolish bezagi bilan ta'sirchan bir nido tarzida kuylanadi. So'ngra ikkinchi jumlaning oxirida 4 ta choraktalik notalarning ijrosiga alohida ahamiyat bermoq lozim. Ana shu notalar kuylanayotganda bir tovush ikkinchisiga o'zaro silliq quyilib borayotgandek, ya'ni, bir nafasda yaxlit sadolanishga erishmoq maqsadga muvofiqdir. Bu joyda, albatta, ovozni mahorat bilan yurgizish, uning sadolanishidagi o'zgarish sezilarsiz o'tmog'i lozim. Ashulaning birinchi avji takt oldi o'n oltitalik «sol» notasidan boshlanib, chuqur hissiyotlarga to'lib-toshib tarannum etiladi. Ashula ohangiga jiddiy e'tibor berilsa, nolish, o'rama, to'lqinlantirish kabi bezaklar ketma-ket ishlatilganligini his qilamiz. «Samarqand Ushshog'i» ashulasining rivojlanishini gumbaziy dengiz to'lqinining shiddatiga o'xshatish mumkin. Xonanda xuddi shunday to'lqinli, dardli hissiyotlarni o'z ijrosida jozibali ko'rsata olsa, albatta, shinavandalarni hayajonga soladi.



## SAVTI SUVORA

Xorazm maqomlari o'zbek xalqi musiqiy merosida alohida o'rin tutadi. Bu betakror xalq musiqiy san'atini saqlab qolish, omma o'rtasida targ'ib qilish va kelgusi avlodga yetkazishda Xorazmning sodiq farzandi, betakror tengi yo'q hofiz Hojixon Boltayevning xizmatlari beqiyosdir. U Xorazm vohasi «Suvora»larini ijro etishda o'ziga xos maktab yaratdi. «Suvora» (suvoriy) — otliq, Xorazm maqomlarida sho'ba va taronalar qo'shib ataladigan shu nomli usul Hojixon Boltayev ijro etgan suvoralar o'zining original xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, «Katta Suvora»lar 6-7 ta, kichik «Savti Suvora»lar 18-20 ga yaqin. Ular birini ikkinchisiga ulab, birining avjini boshqasiga o'tkazib ham aytiladi.

Birinchi asosiy katta suvora «Ona Suvora» deyiladi.

1. «Ona Suvora» (Katta Suvora)
2. «Chapandozi Suvora»
3. «Yakparda Suvora»
4. «Kajxang Suvora»
5. «Qo'sh parda Suvora»
6. «Besh parda Suvora»
7. «Kalta Suvora»

Savti Suvoralar: I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, XII, XIII, XIV, XV va hokazolarga bo'linadi.

Xorazm «Suvora»larining o'ziga xos xususiyati shundaki, ashulaning so'nggi taktlarida ohang bir avjga chiqib, so'ngra pardalari bo'yicha pasayadi. «Savti Suvora» V 6/8 o'lchoviga xos ritm bo'lib, ayni vaqtda o'z ritmi ijrosi bilan tinglovchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Ashula birdan avjga chiqib, so'ng pasayishi bilan alohida ajralib turadi.

Xorazm vohasining musiqiy durdonasi bo'lmish «Suvoralar» hofizlar tomonidan sevib ijro etilgan. Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Ro'zmat Jumaniyozov, Quvondiq Iskandarov, Otajon Xudoyshukurov, Matnazar Xudoynazarov ijrosida yozib olingan ushbu Suvoralar musiqiy merosimizning bebaho durdonasi bo'lib qoldi.

## MO'G'ILCHAI NAVO

Maqomlar ashula bo'limining ikkinchi qismiga kirgan yirik sho'balar orasida «Mo'g'ilcha» nomi bilan mashhur ashula yo'llari alohida o'rin tutadi. Bu sho'baning mo'g'ilcha deb nomlanishi juda qadimiy tarixiy asoslarga ega bo'lsa kerak. San'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Rajabovning yozishicha, «Bu nom XIII asr boshlarida O'rta Osiyoni bosib olgan mo'g'illar imperiyasining yoki XVI asrda Hindistonda Zahiriddin Muhammad Bobur barpo etgan «Buyuk mo'g'illar imperiyasi»ga bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lishi ehtimol»[1].

Bu xol mo'g'illar musiqasida mashhur bo'lgan doira usullariga nisbatan berilgan bo'lsa ehtimoldan xoli emas.

«Mo'g'ilchai Navo» (Gulxaniy she'ri) Buxoro ashulalaridan «Navo» maqomidan bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Ashula vazmin ohista sadolanib, xonandaning qalb harorati ila ta'sirli, qalbga malham oladigan ohanglar tinglovchini butunlay sehrlab qo'yadi.

Ashulani aytish jarayonida xonanda turli bezaklardan, masalan, nola (◡), o'rama (↑↓), to'lqinlantirishlarni o'z o'rniga qo'yib foydalanishi zarur.

## EY, CHEHRASI TOBONIM

Farg'ona vodiysining qadimiy kuylari asosida yaratilgan «Ey, chehrasi tobonim» (Muqimiy she'ri) katta ashulasi hofizlar tomonidan hozirgacha sevib ijro etib kelinmoqda. Ushbu katta ashula musiqiy merosimizning bebaho durdonasi bo'lib qoldi.

---
[1] I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1963. 230-bet.



Katta ashulani, odatda ashulachi-hofiz yoki 2-4 hamnafas ashulachi-hofizlar aytadilar. Bunda jo'rnavoz cholg'ular qo'llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning falsafiy, pand-nasihat va boshqa mavzulardagi she'riy namunalari qo'llaniladi.

Katta ashulalar ikki, ikki yarim oktava oralig'ida bo'lgan rivojlangan kuylarga ega bo'lib, erkin ritm – o'lchov asosida kuylanadi. Bu ashulalarning «Patnusaki ashula» yoki «Likobi ashula» deyilishining sababi, ashulachi-hofizlar ijro paytida qo'llarida patnis, likob (tarelka) ushlab turganliklaridandir.

Boltaboy Rajabov, Hamroqul Qori, Muhammad bobo Sattorov, Akbar Qori Haydarov, Erka Qori Karimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Berkinboy Fayziyev, Fattohxon Mamadaliyev kabi hofizlar katta ashulalarning mahoratli ijrochilari edilar.

Ushbu katta ashulani aytish jarayonida xonanda turli bezaklardan, masalan: o'rama (↑↓), nola (◡), zangulalarni o'z o'rniga qo'yib foydalanishi zarur.

## RA'NOLANMASUN

Akademik, mashhur ustoz bastakor Yunus Rajabiy bastalagan «Ra'nolanmasun» ashulasi (G'oziy muhammasi) musiqa merosimizning oltin xazinasidan munosib o'rin oldi. Bu ashula O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Karim Mo'minov, Is'hoq Katayev, O'zbekiston xalq artisti Orif Alimahsumov ijrosi bilan mashhurdir.

Mazkur ashulaning ko'p shakli bastakorning boshqa ashulalarida bo'lgani singari mumtoz qo'shiqchilik uslubiga asoslangan kvadrat, ya'ni 8+8=16 taktlardan tuzilgan davriyaga asoslanadi. **Lya-minor** ladida tuzilgan birinchi musiqiy jumla ikki bor takrorlanadi. Bu bilan bastakor she'r misralarini takror-takror sharhlab turishga erishadi.

Ashula 8-taktli cholg'u. Kirish qismi bilan boshlanadi. Bu cholg'u qismi ayrim ashulalarga zo'rma-zo'raki kiritiladigan qo'shimcha yoki ashula kuyiga mos tushmaydigan cholg'u qismlaridan mutlaqo farq qiladi. Bu ashula kuyining boshqa ashula kuylaridan farqi, uning tuzilishi va yo'nalishidadir. Ashula **lya-minor** ladining tovush qatorida tuzilgan bo'lib, intonatsiyalar bo'laklari dastlab tonikada, so'ngra ladning subdominanta tovushida to'xtaladi.

Bu ashulaning muhim tomonlaridan biri, uning o'zbek milliy merosi an'analariga yaqin bo'lganligidadir. Ashulaning yuqori avjlar hiso-

bidan diapazonining kengaytirilishi, kuy tarkibining pog'onama-pog'ona rivojlanib kelishi singari bir qator xususiyatlari ashulaning yanada jozibador bo'lib eshitilishiga asos bo'lgan.

Ashulaning yorqin, ta'sirchan xarakteri, 3/4 usulida keng ko'lamda ijro qilish uslubi diqqatga sazovordir. Shu bois xonandalar ijrosidan muhim jozibali ijro sifatini talab qiladi.

Ashulani ijro etish jarayonida xonanda turli bezaklardan, masalan, nola (◡), o'rama (↑↓), to'lqinlantirishlarni (〰) o'z o'rniga qo'yib foydalanishi zarur.

## FARG'ONA TONG OTGUNCHA

Mashhur bastakor Muxtorjon Murtazoyev Haziniy g'azaliga bastalagan ushbu ashula, ko'p yillardan buyon xonandalar tomonidan kuylanib kelinmoqda. Abdulatif Xoldorov, Umar Otayev va, ayniqsa, O'zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov ijrosida bu ashula mashhur va betakrordir.

Bu ashulaning muhim tomonlaridan biri, uning o'zbek milliy meros an'analariga yaqin ruhda yaratilganligidadir. Ashula **re-minor** tonalligida, frigiy ladida kuylanadi. Sinkopa o'lchovi, ohangni keng ta'sirchan shaklda ifodalanishi, yuqori avjlar hisobida ashula diapazonining kengaytirilishi ($a^1$ - $a^2$) kuy tarkibining pog'onama-pog'ona rivojlanib, kuchlanishi singari bir qator xususiyatlar ashulaning yanada yorqin va jozibador bo'lib eshitilishiga hamkorlik qiladi.

Ashulaning umumiy ruhi g'oyat ta'sirchan, tinglovchini o'ylatib qo'yadigan jozibador shaklga ega. Ashula kuyi ayrim satrlarining takrorlanishi hisobidan qaytarish (repriza) murakkab uch qismli shaklda yaratilgan. Ashula kuyi juda ravon va aytilishi g'oyat o'ng'ay bo'lganligi uchun taniqli hofizlar, xonandalar repertuarlaridan mustahkam o'rin olgan.

Ashulada an'anaviy ijroga xos turli bezaklar: nola, o'rama, to'lqinlantirish, zangulalar ishlatilgan. Xususan, birinchi jumlaning oltinchi taktidagi **mi, fa, sol, lya** nola uslubida nafis ijro etilmog'i lozim. U qalbdagi chuqur dardni ifodalab, iztirobli nolish qiladi. Birinchi jumla ayrim o'zgarish bilan qaytariladi. Keyin jumlaning uchinchi taktida o'rama bilan boshlanuvchi sakkiztalik, choraktalik (sol, lya, fa) notalarning dinamikasiga e'tibor bering. Tovush «sol»da kuchayib, «lya», «fa»da biroz pasayadi. < > dinamik belgilar ijroda o'ziga xos bezak vazifasini o'taydi. Ashulaning eng jozibali va ta'sirchan qismi uning



avjidir. Tinglovchining qalbiga zavq bag'ishlay oladigan va o'yga toldiradigan mazkur qism xonandadan katta mahorat talab etadi. Avj uch qismdan iborat bo'lib, birinchisi 4 taktli, ikkinchi, uchinchisi 8 takt, u yana bir bor takrorlanishida qalb sadosi cho'qqiga – bulutlar orasiga kirib, eshituvchini yanada dardli larzaga soladi va mayin, yoqimli ilohiy his-tuyg'ular og'ushida xotimaga o'tadi.

## DOG'MAN

Mashhur hofiz va bastakor Komiljon Otaniyozov bastalagan ushbu ashula O'zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov ijro-sida betakrordir.

Bastakorning «Dog'man» (Noqis muxammasi) ashulasi frigiy **mi-minor**da yaratilgan kuy tuzilmasi she'rdagi badiiy obrazni ochib ko'rsatishga qaratilgan. Bastakor she'r satrining alohida-alohida ma'no kasb etadigan so'zlariga, chunonchi, «dog'man» so'zlari uchun yorqin, chuqur falsafiy ma'nodagi ohang tuzilmalarini yarata olgan.

Ashula to'rt taktli, cholg'u kirish qismi bilan boshlanadi. Bu cholg'u qismi ashula kuyining ichki tuzilmasidan kelib chiqadi va oldinda «Dog'man»ning tug'yonli savollarini boshlab berganday bo'ladi. U asosiy kuyga organik bog'lanib ketadi. Bu ashula kuyining boshqa ashula kuylaridan farqi, uning tuzilishi va yo'nalishidadir. Frigiy minor ladining tovush qatorida tuziladigan intonatsiyalar juda yorqin va o'ziga xos xususiyatga ega. Bu intonatsiya bo'laklari dastlab tonikada, so'ngra ladning subdominanta tovushlarida berilayotgan savol xarakterini yanada kuchaytiradi.

Bastakorning mana shu xildagi o'ziga xos uslubi ashulani har xil shaklda turlanishi, rang-barang eshitilishi, shaklan va mazmunan boyitilishiga imkoniyat yaratadi.

Ustoz bastakor Komiljon Otaniyozov ijodida rang-baranglik, hayot haqiqatining turli tomonlari qamrab olinishi badiiy jihatdan umumlashtirilgan. Bularning barchasi bastakorning har bir asarida yorqin ifodalangan.

Endi ashulaning avj qismiga kelsak, u sakkiztalik «mi» notasidagi nola bilan boshlanib, «sol» notasiga sirg'anib tushadi va uni yoqimli to'lqinlantirib ijro etish tavsiya etiladi.

## NAZZORA QIL

Ustoz bastakor, mohir sozanda Komiljon Jabborov bastalagan «Nazzora qil» ashulasi (Navoiy g'azali) musiqa merosimizning durdonalaridan biri bo'lib, munosib o'ringa ega. Bu ashula xalq hofizi Ortiqxo'ja Imomxo'jayev ijrosida ma'lum va mashhurdir. Ustoz hofiz ashulani jozibali mahorat bilan ta'sirchan ijro etgan. Ijrodagi bezaklar nafisligi, maftunkorligi bilan tinglovchini o'ziga maftun etadi.

Ushbu ashulaning muhim tomonlaridan biri uning o'zbek an'anaviy qo'shiq ijrochiligiga yaqin ruhda bastalanganligidadir.

Ashula **do-minor** tonalligida bayon etilganligi, uning 3/4 o'lchovi, ohangning keng qamrovli jozibali shaklda ifodalanishi, yuqori avjlar hisobida ashula diapazonining kengligi, kuy tarkibining legato asosida rivojlanib borishi singari bir qator muhim jihatlari ashulaning yanada ta'sirchan bo'lib jaranglashiga imkon hosil qilgan.

Ashula 2-taktli usul bilan boshlanadi. Ashula «do» minor ladining tovush qatorida tuziladigan intonatsiyalar bo'laklari dastlab tonikada, so'ngra ladning kvinta tovushida to'xtaladi.

Ashulada an'anaviy ijroga xos turli bezaklar: nola, o'rama, to'lqinlantirishlar ishlatilgan. Zotan, birinchi jumlaning oltinchi, yettinchi taktlaridagi «lya», «sol», «lya», «sol», «fa», «mi», «fa», «mi», «re» tovushlari «nola» uslubida nafis va ta'sirli ijro etilishi lozim.

Ashulaning xonandadan professional ijro, mahorat talab qiladigan qismi uning avji hisoblanadi. Avj uch qismdan iborat bo'lib, birinchisi – 6 takt, ikkinchi va uchinchisi – 7 taktdan tashkil topgan. U yana bir takrorlanishida, bir bor qaytarilishida qalb sadosi cho'qqiga ko'tarilib, tinglovchini hayajonli o'yga soladi va yoqimli ruhiy holat og'ushida xotimaga tortadi.

## G'AMZASIN SEVDING, KO'NGIL

Taniqli rubobchi-bastakor Rahmatjon Fuzuliy g'azaliga kuy bastalab, «G'amzasin sevding ko'ngil» ashulasini yaratdi. Bu ashula O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tojiddin Murodov ijrosida mashhur va betakrordir.

Ashula kuyining samimiyligi va ulug'vorligi, keng ko'lamli, osoyishtalik ruhini bag'ishlaydigan xususiyati, musiqaning «dunyoviy» his-tuyg'ularini ifodalaydi. Ashulaning kuyi an'anaviy shaklda bo'lmasdan yuqoridan pastga tomon harakatlanadi. Doriy minor ladining tovush qatorida tuziladigan ohanglar, juda yorqin va o'ziga xos xususiyatga ega. Bu ohang bo'laklari dastlab tonikada, so'ngra ladning subdominanta tovushlarida to'xtaladi va berilayotgan savol tavsifiy xarakterni yanada kuchaytiradi.

Ashula kuyining mana shu uslubda yaratilishi, sevgi iztirobini tortayotgan yosh qalbning oh tortib chuqur xo'rsinishi va uning har to'rt taktdan keyin bir taktli cholg'u bo'lagi bilan ajratilishi ham lirik his-tuyg'ularni yanada chuqurlashtiradi. Ashulaning ikkinchi qismida lad almashuvi yaqqol ko'rinadi va unga hayajon bag'ishlaydi.

Ashulani ijro etish jarayonida xonanda turli bezaklardan, masalan: nola (◡), o'rama (↑↓), zangulalardan (〰) o'z o'rniga qo'yib foydalanishi lozim.

Ashula 6 taktli kirish qismi bilan boshlanadi. Ashula «mi» minor doriy ladining tovush qatorida tuziladigan, intonatsiyalar bo'laklari dastlab tonikada, keyin ladning subdominanta tovushida to'xtaladi.

Ashulaning eng ta'sirchan, eshituvchi tomonidan baholanadigan qismi uning avjidir. Avj ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi 4 takt, ikkinchisi ham 4 taktdan iborat. U yana bir bor o'rta avj takrorlanishida eshituvchini o'ychan dardli larzaga solib xotimaga o'tadi.

# MUSIQIY NAMUNALAR

## DOG‘MAN

*Noqis* **muhammasi** *K. Otajonov* **musiqasi**

**O‘rtacha tezlikda**
















Ishqingda zor bo'ldim netay, g'amgin dimog'man,
Bemori furqatingmanu, zohirda sog'man,
Aqlu xushim sening bilan o'zdin yiroqman,
Ko'rsat yuzingni tolibi nuri charog'man.
Hajringda dardu g'am bilan hasratda dog'man.

O'ldim jamoling shavqida darding ololmadim,
Boshingdan ey sanam , nega men o'rgilolmadim,
Bir lahza ishrat uyida majlis qurolmadim,
La'li labingni qandini bir dam so'rolmadim,
Hajringda dardu g'am bilan hasratda dog'man.

Sensan parivash ahlini sho'xi zamonasi,
Menman sening ishqing bilan olam afsonasi,
Ko'ngil hushini boisi ganju taronasi,
Zulfingni domi-yu yana xolingni donasi
Hajringda dardu g'am bilan hasratda dog'man.

O'lsam edi visolingga parvonadek kuyib,
Jon bersam erdi, boshimni ostonangga qo'yib,
Mahmurligingda bodai vasling bilan to'yib,
N oqisligingda ko'ksini tiyri mujang kuyib
Hajringda dardu g'am bilan hasratda dog'man.

# FARG‘ONA TONG OTGUNCHA

*Haziniy* g‘azali — *M. Murtazoyev* musiqasi

**Vazmin**
















Hijron o'tig'a jismim so'zona tong otguncha,
O'rtab yuragim bag'rim giryona tong otguncha.

Men Vomuqu sen Uzro vaslingga yetolmayman,
Har kecha qarorgohim ostona tong otguncha.

Oqshomda jamolingni shamidek munavvar qil,
Sen birla bo'lay anday hamxona tong otguncha.

Naylayki ilojim yo'q har ko'chada yig'layman,
Tor o'ldi Haziniyga Farg'ona tong otguncha.

# NAZZORA QIL

*A. Navoiy* g'azali | *K. Jabborov* musiqasi

**O'rtacha tezlikda**











Ey pari yuz yoraliq ko'nglum sari nazzora qil,
Yorasiz har joydakim topsang ani ham yora qil.

Xayl hindudekki dushman ilgari bo'lg'ay asir,
Har birisin olam ichra bir taraf ovora qil,

Chun alar ovvora bo'ldi, ko'zlarimni ham o'yub,
O'tga tashlab uylarin ham tosh ila yuz pora qil.

Ul ikkovin boshima kelgan baloyu g'ussani,
Aylabon mundoq uqubatlar zamoni chora qil,

Ey Navoiy, uynag'unch yo'q ishq to yuz ko'rmaguncha,
Uzr etib yer o'pu, so'z tarkini ham yak bora qil.



## RA'NOLANMASUN

**G'oziy muxammasi** — ***Yunus Rajabiy* musiqasi**

**Vazmin**











Bog‘ aro yuzlanki to gulchehra ra’nolanmasun
Sabzasin poymol qil ra’nosi zebolanmasun.
N'oz etib zulfingdagi sunbul mutarolanmasun
Orazing ko‘rsatki bu gulshan tamosholanmasun.
Qomatingga jilvai to‘bi tamannolanmasun

Ey kiyik ko‘zli, shakar so‘zli, quyosh yuzli nigor
Bo‘lsa ming jonim mening qilsam tasadduq jonivo
Yoshirun lutfing g‘azab rasmini aylab oshkor
Maqsading gar qatlim ersa ayla pinhon, zinhor
Zohir etma bu karam to xalqi g‘avg‘olanmasun.

# SAVTI SUVORA











Ul yuzi gul nigorning mehri jamolini ko‘ring
Mehri jamoli ustida ikki niholini ko‘ring.

Ikki niholini ko‘rib qonmasa mehringiz agar,
Safhayi orazi uzra nuqtai xolini ko‘ring.



Nuqtai xolini ko‘rib sabr eta olmas ersangiz
Husni jamoli bog‘ida qaddi niholini ko‘ring.

Qaddi niholini ko‘rib ko‘nglingiz etmasa qaror
Jon ko‘zi birla boqibon la’li zilolini ko‘ring.

La’li zilolini ko‘rib joningiz etsa istirob
Chorai holingiz uchun shahd maqomini ko‘ring.

Shahd maqomini ko‘rib topmasa chora holingiz,
Nuqtaga lab ochar chog‘i g‘unju dalolini ko‘ring.

G‘unju dalolini ko‘rib istasangiz murodu dil ,
Ogahiydek quchib belin ayshu kamolini ko‘ring.

## G‘AMZASIN SEVDING, KO‘NGUL ...

*Fuzuliy* **g‘azali** | ***R. Tursunov*** **musiqasi**

**Vazmin**








G'amzasin sevding ko'ngul joning kerakmasmu senga
Teg'a urding jismi uryoning kerakmasmu senga

Otashin ohimla aylarsan menga taklifi bog'
Bog'bon gul bargi xandoning kerakmasmu senga

Ey kamon abro'raqiba berma g'amzangdin nasib
O'q otarsan tosha, paykoming kerakmasmu senga

Yondurub jonim jahon so'z etma barqi ohimi
Osmon, xurshidi raxshoning kerakmasmu senga.

Tutalimkim ashk selobina yo'qdir e'tibjr
Ey Fuzuliy, chashmu giryoning kerakmasmu senga.

## MO'G'ILCHAI NAVO











Ey buti shirin, labi simin, tani rangin qab
Poyi to sar jilvayu makru fani nozik ado.

Maskanat jabru lafoyu, zolimiy bedodukin,
Darsi pehri bevafoi mohi be mehru vafo.

Mubtaloi xolu zulfu orazu chashmi tu bud
Hindui Kashmiriyu Rumiyu Turkoni, Xitoy

Zotashi shami ruxat parvona besabru shikeb
Husni zarkash. ishqi g'olib man zabun dil benavo

Bar tomoshoyat nigohi notavonam kay rasad
Gar naboshad yodi mijgonat ba dasti o' azo

Zindagoni ho g'ami bad baxti toke Gulxaniy
Chandi g'oyi yori berahmu falak no oshino.

# NASRULLOIY

**O‘rtacha tez**









ba - liq din no - pi -sand o'l - sam
(o o)
a - nga ko'r - kim ja - fo - ga - kim
ni men- cha ul pa- ri pay - kar
pi-sand et -mish
La - bing - da no' - shi
zah - ri -haj ri og' - zin - da
tong er -mas- kim men - ga har zah -
ri xand o'l - g'on - da
ul bir no' - sh(i) xand et - mish (o)




yo - rey o - o -
o o o
o o o
o o
o o o o
hay jo - na - mo o hay jo- ney)
La - bi la' - li ma
- lo - hat xo - li bir -lan bax - ra -
var qij - gan me- ning jo -nim - ni
do - g'i ish - qi bir - lan


bah - ra - mand et - mish
(o) Bi - rov - kim sar - vi -
dek o - zo da - vash bo'l -
di bu bog' ich - ra
(o) qa - zo dex - ko ni
hamsar - sabs an - ga ham sar ba -
land et - mish (o) Ma-
yi rav - shan tut ey so - qi ki
ko'ng - lim tiy - ra qil - mish
shayx (o)




yor yo - rey) Da - mi af - sun
bi - la bas - kim an - ga iz - xo -
ri pand etmish
Na - vo - iy kech vi - sol u - mi
di - din - kim haq se - ni be - had
(yor yo - rey) Za - li - lu zo - ri
yo - ring - ni a - zi - zu ar - ju -mand et - mish
(o o jo - nim
o o
jo - ni - mo

Parizodi ki, mushkin zulfi jonim mustamand etmish,
Maloik kushlarin ul halqa mo'lar birla band etmish.

Samanding kim yolindek tez erur yuz shukrkim gardun,
Agar bir ne samandarvash, munga bir ne samand etmish.

Chekarga ishq otash gohiga devona ko'nglumni
Qazo har bir sharar torini bir o'qlug' kamand etmish.

Vafoga telbalikdin nopisand o'lsam anga ko'rkim
Jafoga kimni mencha ul pari paykar pisand etmish.

Labingda no'sh zahri hajri og'zinda tong ermaskim,
Menga har zahri xand o'lg'onda ul bir no'shxand etmish.

Labi la'li malohat xoli birlan baxravar qilgan,
Mening jonimni dog'i ishqi birlan bahramand etmish.

Birovkim, sarvidek ozodavash bo'ldi bu bog' ichra,
Qazo dehkoni ham sar sabs anga, ham sarbaland etmish.

Mayi ravshan tut e soqiqi, ko'nglum tiyra qilmish shayx.
Dami afsun bila baskim anga izhori pand etmish.

Navoiy, kech visol umididinkim, haq seni behad,
Zalilu zor yoringni azizu arjumand etmish.



# SAMARQAND USHSHOG'I

*Zebuniso* g'azali
O'rtacha tez

*Xoji Abdulaziz Abdurasulov*
musiqasi




zul- fi ka - ju bi -yo- ki zul- fi ka - ju
chash - mi sur - ma - so in -jost ey yo - rey
Ni - go - hi gar - mu a - do - ho - yi
dil - ra - bo in -jost ey jo - na - mo
Ka - rash -
ma ti - g`u mi - ja - yey han -ja -
ri ni - gah ol - mos sha - ho - dat - ar ta - la - bi
dash - ti Kar - ba - lo in - jost ey
o o o jo -




- ney
A - gar bi -
hisht di - han -dat fi - re - bi kas na- xo- ri
qa - dam zi may - ka - da be - run
ma -neh, ki jo m - jost ey
yo - rey o o









Biyoki zulfi kaju chashmi surmaso injost
Nigohi garmu adohoyi dilrabo injost

Karashma tig'i mijo hanjari nigah olmos
Shahodatar talabi dashti Karbalo injost

Agar bihish dihandat firebi kas naxuri
Qadam zi maykada berun maneh ki jo injost

Kitob xonai olam varaq - varaq justam
Xati tu diydamu guftam ki: "Muddao injost"

Zakoti husni agar medihi baroyi rizo
Biyoki Zebuniso ham chu man gado injost

# XONANDALAR OVOZLARINI QO'SHIQ AYTISHGA TAYYORLASH MASHQLARI

**1. Keng nafas hamda an'anaviy ijrochilik yo'lida kuylash uchun mashqlar**



( Og'izni yumib va ochib )

**2. Cho'zib nafas olish uchun mashq**




**3. Chaqqon talaffuz va an'anaviy ijrochilik yo'lida kuylash uchun mashq**




**4. Unli tovushlar vositasida talaffuz uchun**




**5. Legato uchun mashq**






**6. Stakkato uchun mashq**




**7. Tiniq soz uchun mashq**




**8. Ovoz diapazonini kengaytirish uchun mashqlar**










*(Og'izni yumib va ochib)*



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. **Akbarov I.A.** «Muzika lug'ati». Toshkent, 1987.
2. **Rajabiy Yu.** «Shashmaqom» III jild. Toshkent, 1970.
3. **Rajabiy Yu.** «Shashmaqom» IV jild. Toshkent, 1970.
4. **Rajabiy Yu.** «Shashmaqom» V jild. Toshkent, 1970.
5. **Rajabiy Yu.** «Musiqa merosimizga bir nazar». Toshkent, 1978.
6. **Rajabiy Yu.** «Maqomlar masalasiga doir». Toshkent, 1963
7. **Rajabiy Yu.** «O'zbek xalq musiqasi». I-V jildlar. O'zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent, 1957-1959.
8. **Taxalov S.** «Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi asoslari». Toshkent, 1983.
9. **Yusupov M.** «Xorazm maqomlari» 5 jildlik. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
10. **Fitrat.** «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi». «Fan», Toshkent, 1993.
11. **Odilov A.** «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi». «O'qituvchi». Toshkent, 1995.
12. **Qosimov R.** Rubob navolari. Toshkent, 1993.
13. **Qosimov R.** «Ud ijrochiligi». G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2002.
14. **Karamatov F.** «O'zbek xalq musiqa merosi». 1,2 kitob. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1978-1983.
15. **G'ofurbekov T.** «Folklorniye istoki uzbekskogo professionalnogo muzikalnogo tvorchestva». «O'qituvchi». Toshkent, 1984.
16. **Toshmuhamedov M.** «G'ijjak taronalari». G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1983.
17. **Toshmuhamedov M.** G'ijjakda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish. Toshkent, 1999.
18. **Yo'ldoshev T.** «Kurd». Afg'on rubobi ijrochiligi bo'yicha qo'llanma. «O'zbekiston». Toshkent, 1999.
19. **Hamidov A.** «O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi xrestomatiyasi». «O'qituvchi». Toshkent, 1996.
20. **Matyoqubov O.** «Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish». «O'qituvchi». Toshkent, 1983.
21. **Hamidov H.** «O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi». «O'qituvchi». Toshkent, 1996.
22. **R.Tursunov.** «Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyati». G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 2002.
23. **S.Mannopov.** «So'nmas navolar». «Farg'ona» nashriyoti, 2003.




## Mundarija


Kirish ... 3
O'zbek xonandalik san'ati ... 5
O'zbek qo'shiqchilik san'atining mahalliy uslublari ... 18
Buxoro-Samarqand xonandalik uslubi ... 18
Xorazm xonandalik uslubi ... 20
Xorazm ashulachilik san'ati ... 20
Xorazm maqomlari haqida tushuncha ... 21
Farg'ona-Toshkent xonandalik uslubi ... 21
Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi ... 22
Surxondaryo-Qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg'ulari ... 22
Yallachilik san'ati ... 23
Xalq ashulalari ... 23
Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ... 24
Ashulachilar ovozlari tavsifnomasi va diapazoni ... 25
Ashula aytish texnikasi. Talaffuz ... 26
Xonandalarni to'g'ri nafas olishga o'rgatish ... 27
Zanjir yoki ulama nafas olish usuli ... 28
Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlash (Ovoz mashqlari) ... 29
An'anaviy qo'shiq ijrochiligi bezaklarini nota yozuvida ifodalash va o'zlashtirish uslubiyati ... 29
Asarlarni ijro etishdagi bezaklarni ifodalash belgilari ... 30
Dars jarayonida an'anaviy qo'shiq ijrosini o'zlashtirishga oid tavsiyalar ... 32
Badiiy bo'limdagi asarlarga izoh va ijroga taalluqli qisqa uslubiy tavsiyalar ... 33
Nasrulloiy ... 33
Samarqand ushshog'i ... 34
Savti suvora ... 35
Mo'lg'ilchai navo ... 36
Ey, chehrasi tobonim ... 36
Ra'nolanmasun ... 37
Farg'ona tong otguncha ... 38
Dog'man ... 39
Nazzora qil ... 39
G'amzasin sevding, ko'ngil ... 40
Musiqiy namunalar ... 42
Foydalanilgan adabiyotlar ... 78

T.95 R.TURSUNOV , S.MANNOPOV

An'anaviy qo'shiq ijrochiligi uslubiyati. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. -T.: «Ijod dunyosi», 2003. — 80 b.

BBK 85.314ya722

R.TURSUNOV
S.MANNOPOV

AN'ANAVIY QO'SHIQ
IJROCHILIGI USLUBIYATI

*Toshkent, «Ijod dunyosi», 2003*

Tahririyat mudiri *G. Ahmedova*
Muharrir *Sh. O'rmonova*
Musavvir *B. Jalolov*
Badiiy muharrir *R.Zufarov*
Muqova musavviri *E.Orlyonova*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Sahifalovchi *A.Tillaxo'jayev*
Musahhih *M. Usmonova*

Bosishga 17.06.03. ruxsat etildi . Bichimi 60x90$^1/_{16}$. Kegli 11, 10 shponli.
Times garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 5,0.
Nashr. b. t.4,46. Adadi 3000 nusxada bosildi.
4022-buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.
Shartnoma 21–2003.

«Ijod dunyosi» nashriyot uyi.
Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
Birinchi bosmaxonosida chop etildi.
Toshkent, 700002, Sag'bon, 1-berk ko'cha, 2-uy.